

Baxtiqaro
MSU
“D”



Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 12-may, chorshanba № 19 (9344)

Xalq ziyyolilari gazetasi

Uzoq viloyatga safar qildim. Quvvatlashni unutganim uchun telefonim yarim yo'lga yetmasdan o'chib qoldi. Bozorda bolasini yo'qotib qo'yan onaday har soniyada bezvota bo'laveraman. Tarki odat — amrimahol.

Cho'ntagimdag'i hushidan ay-rilgan "do'stim"ning yuzini siy-palayman, "tur-e, oshna" degan-day, u yer-bu yerini turtaman. U ham "ko'zlarini" erinib ochadi-yu, yana "uyqu"ga ketadi. Xullas, safar ham safar bo'lidi. Uyga qaytgach, xonadoshlarning salomiga ham yarimta alik olib, telefonimni quvvatlashga shoshildim. Xuddi suv yo'liga qadalib qolgan xas uyumi-ni turtib yuborgandek, internetga

tog'ri-notog'ri, aralash-quralash xabarlar.

Ijtimoiy tarmoqlar len-tasi uzra haloslab yugur-gancha "o'z zamoni"ga yetib olishga tiris-haman. Yo'l-yo'lakay



professional-da. Axborotga parallel ravishda odatiy narsalarga yangicha yondashadigan, muam-molarni o'zgacha hal etadigan, vaziyatga boshqacha nazar bilan qaraydigan, kreativ fikrga ega jurnalistlarga ham kundan-kun ehtiyoj ortmoqda.

Mushtariylarimiz orasida ushuu kasbni tanlashni ni-yat qilganlar ham topiladi. Ularda "Xo'sh, bunda bizga yordam beradigan biror qo'llanma bormi?" degan savol tug'ilgan bo'lsa, ajab emas. Albatta, bor. Yaqinda Yulduz Ortiqovaning "Mumtoz so'z" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Jurnalistikada kreativ fikrlash" nomli qo'llanmasi bu yo'lida sizga yaxshi ko'makchi bo'ladi.

Unda kreativ fikrlashning nazariyasi asoslari ilm-fan, san'at va ijodiy jarayonlarda tutgan o'rni misolida tahvil qilingan. Qo'llanmada kreativ fikrlash jarayonida-gi psixologik o'zgarishlar haqida ma'lumotlar, turli yo'nalişlar nazariyasi borasida tushunchalar hamda ularni jurnalistika amali-yotida qo'llash bo'yicha usullar ham taqdim etilgan. Qo'llanma jurnalistika ixtisosligi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini talabalarini, soha mutaxassisllari hamda mavzu-ga qiziqqan barcha kitobxonlarga mo'ljalangan. Ko'p eshitgandan ko'ra, bir marta o'qib ko'rgan ma'kul. O'qing, o'rganing, kreativ fikrlashni bugundan boshlang!

Юлдуз ОРТИКОВА

ЖУРНАЛИСТИКАДА КРЕАТИВ ФИКРЛАШ

Ўкув кўпламма

ОЗБЕКСОН РЕПОРТАЖ ВА
ИСТОРИЯ

ulanishim bilan xabarlar shovullab kela boshladi. Ularni o'qirkaman, "Zamonlar osha" filmidagi o'rta asrlardan kelgan qahramonlar kabi his qildim o'zimni. Qaysidir davlatga yangi prezident saylangan, dunyoning yana qay bir burchagidan urushning qo'lansha hidi anqiy boshlagan, hatto qovun tushirgan amaldor haqida ertalab to'qilgan latifalarning ham tushga bormay mazasi qochibdi... xul-las, bir sutka ichida dunyo butkul o'zgarib ketibdi. Rost-yolg'on,

Mening laqabim "Anavi". Majlis-larda jamoa manfaatlariiga zid ma-sala yoki ortiqcha bosim sezsam, darrov mikrofonni beruxsat olib, rahbarlarning yuziga "suv sepib", sergak-lantirgichelagi ledi. Nima qilay, jamoadagi 70 juft nighog "Siz gapiring" deb qo'ymasa?! Keskir gapirgan xodim kimgayam yoqardi?! Shungami, oxirgi paytlarda yig'ilishlarga chaqirmay qo'yishdi. Maosh yo'lda to'kilmay ro'zg'orga yetib borsa, qanday soz! Rahbarlar orqamdan "anavi" deyishini bilaman. Indamay qo'ya qolaman.

Nafisa ORTIQOVA

Yoshim 52 da. Attestatsiyadan 80 ball bilan oly toifaga o'tdim. Buning ortida juda ko'p mehnat bor. Ammo bu testlar, tanlovlar, diplom-u ser-tifikatlarning hech biri bir soatlik darsimni qimmatini belgilamaydi. Faqat o'quv-chilarimning meni sevishi, hurmat qilishi mehnatining samarasi — mening haqiqiy bahoyimdir. Buni faqat o'quvchigina ko'rsata oladi. Shuning uchun har bir darsimni ularning bahosi bilan o'chayman, boshqasi men uchun halol emas, yoshligimdayoq tanlovlar dan hafsalam pir bo'lgan.

Gulbahor BERDIYEVA

3 farzandim bor. Kattasi maktabda, keyingisi bog'chada ta'lim-tarbiya oladi. Kenjasni endi I yoshga to'ladи. Yetkazolmaganidan kredit olgaman. Endi ham ro'zg'or xarajatlarini, ham kreditni qoplashim kerak. Orada bolalar kasal bo'ladi, bog'cha puli... Bu gal kreditni to'lamagandim, suda berishdi. Bormadim, MIB-ga chiqaribdi, undirgani kellar ekan. Uyda ona-bola qo'yim bor. Shuni olib ketsa, ana hayot-u, mana hayot. O'zi, shartnoma asosida o'qiganman. Maktabda ish boshlaganimiga 10 yil bo'lidi. Sharoitim yaxhilanish o'rniga qiyinlashib, kamiga, asablarim tugamoqda.

B. KIMSANOV

Chiqindi: kreativ yondashish, innovatsion taklif va amaliy klassifikasiya tajribasi



Humoyun QUVONDIQOV

8-9-betlar

Baxtiqaro “ŋ”

Har bir til tovushlardan iborat va ular birikib o'sha tilning nutq tizimi, so'z va gaplarni hosil qiladi. Tovushlar barcha tillarda mavjud bo'lsa-da, ular milliy bo'yoqqa ham ega. Yaratgan har bir millat vakiliga o'ziga xos nutq organlarini ato etganki, ona tilimizda alohida mavqega ega bo'lgan tovush bor.

Bu hosil bo'lish o'miga ko'ra til orqa, ovoz va shov-qinning ishtirokiga ko'ra sonor (ovozdor) bo'lgan NG tovushidir. U hozirgacha qo'llanib kelayotgan kirill alifbosini va shu kunda qisman amalda bo'lgan lotin yozuvida ikki belgi, n va g bilan yozib kelinmoqda. Bunday yozish bir tovush – bir belgi principiga zid bo'lishidan tashqari, ushbu tovush buzuq talaffuz qilinishiga sabab bo'lmoqda va uning keyingi taqdiri xavf ostida qolmoqda. Ayrim boshlovchilar, estrada xonandalari "keling", "yuring" kabi so'zlarini "kelin-g", "yurin-g" tarzida noto'g'ri aytta boshladidi. Bu tovushning buzuq talaffuz qilinishi tilimizning nafosatiga soya tashlay boshladi.

Yaqinda "Yangi alifbo loyihasi" e'lon qilingan edi. Mazkur loyihasda Sh, Ch harflari muammosi to'g'ri hal etilgan. Umuman, bu loyiha bo'yicha qizg'in bahsler bo'ldi. Lekin to'g'risini aytganda ba'zi o'rinni, muhim fikrlarni to'liq aytishga vaqt yetishmadidi. Shuning uchun ham "Yangi alifbo loyihasi" muhokamasini yana bir muddatga cho'zishga qaror qilinaganligini ma'qullaymiz.

Biz quyida yangi loyihaning asosiy kamchiliklari dan biri bo'lgan ng tovushi uchun yaxlit bir harf belgianmagani haqida fikr yuritamiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1929- va 1993-yillardagi lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbolarida ng tovushi uchun yaxlit bir harf olingan edi. Bundan tashqari, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, boshqird, tatar singari turkiy tillar alifbolarida mazkur tovush yaxlit bir harf bilan berilgan.

Ba'zilar ng tovushi bir harf bilan ifodalanganmagani ning asosiy sababi kirildan lotinga transliteratsiya qilishda menga, senga kabi ng tarzidagi holatlarni tarjimon lingvistik dasturlar farqlay olmaydi hamda tong, bong so'zlaridagi kabi ng tarzida transliteratsiya qiladi, qabilida tushuntiradilar. Bunday muammo ng tovushi bitta yaxlit harf bilan belgilangan turkiy xalqlarda

yo'q-ku? Qolaversa, bizningcha sen va men olmoshlariga -ga qo'shimchasi qo'shilsa, n va g tovushlari qo'shilib ng tovushiga aylanadi. Bu holatni mumtoz adiblarimiz, jumladan Navoiyda ham kuzatish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ushbu fonemani ng shakhlida ikki harf bilan ifodalaganda, o'quvchilar, talabalar va ba'zi yurtdoshlarimiz nutqida jiddiy xatolar tez-tez uchrab turibdi. Masalan, oling, qoling, yozing, bizning singari so'zlardagi ng ni bitta tovush sifatida emas, balki mazkur so'zlardagi n va g larni alohida-alohida tovush sifatida talaffuz qilinmoqda. Ayniqsa II (shaxs humrat shakli -ngiz ga bir g orttirilib talaffuz etilmoqda: kitobingiz, hayottingiz, sog'lig'ingiz kabi).

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun loyihasining asosiy maqsadlaridan biri harfiy birkalmalarni "bir tovush – bir harf" tamoyiliga ko'ra ifodalashdir. Shunga muvofiq ng fonemasini ifodalash uchun harfli birkma o'miga yaxlit bir harf ŋ olinishi lozim.

So'zimiz avvalida ushbu go'zal tovushimizni baxtiqaro dedik. Chunki u haligacha o'ziga mos bir belgi ololmay arosatda qolmoqda. Lekin uning ham bir kun kelib baxti ochilishi kerak-ku. Bu istiqlol davrida, yangi O'zbekiston sharoitida ro'y bermasa, qachon ro'y beradi? Ona tilimizning nuqssiz go'zalligi barchamizning orzumiz emasmi?

Suvon MELI,
filologiya fanlari doktori

Bugunning gapi

Avval talablar isloq qilinsin

Har qanday maqola fikr aytish ehtiyojidan paydo bo'ladi. Ijtimoiy hayotning biror jabhasidagi muammo haqida mulohazalarni tahririyatga yuborish yig'inda so'zga chiqish uchun qo'l ko'targandek gap. Jo'yali fikr aytasangiz – qulog solinadi (chop etiladi), noma'qul bo'lsa shovqin ko'tariladi (maqola esa g'yaladonga tashlab qo'yiladi). Shu bois, gapni birdaniga taklifimizning o'zagidan boshlamoqchimiz: bizda ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar qanday o'qitilmoqda?

Har mabtabda har xil. Garchi bir xil texnologik xarita joriy qilinib, yangi innovatsiyalar tavsija etilgan bo'lsa-da, biz tilga oltagan fanlar bo'yicha o'tiladigan darslar, asosan, o'quvchilarga sana, fakt va raqamlarni yodlatishdan iborat bo'lib qolmoqda. Aksar o'qituvchilar o'tilgan darslarni baholashda o'sha yodlatilgan sanalarni bosh mezon qilib olishadi. Holbuki, raqamlarni yoddan bish yoki bilmaslik hech narsani anglatmaydi.

Aslida, "sanaparastlik"ning kelib chiqishiga... mavjud sharoit aybdor. Har bir o'quvchi oliy o'quv yurtiga kirishni bosh maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchilar ham "o'zining fani" bo'yicha ko'proq o'quvchi oliy o'quv yurtiga kirishidan manfaatdor. Universitetlarga kirish uchun esa... ko'proq (yanada ko'proq) sanalarni yoddan bish shart. Misol uchun O'zbekiston tarixi fanini olaylik. "Chingizxon Xorazm davlatiga nechanchi yili bostirib kirgan?" degan savol qo'yiladi. Tagida esa bir-biridan atigi bir yil farq qiluvchi to'rtta sana javob variantlari ko'rsatiladi. Kirish imtihonida o'quvchiga mana shu bittagina savol atrofida mulohaza yuritish imkonli berilsa, uning talaba bo'lishga loyiqmi yoki loyiqmasligi ma'lum bo'lib qolardi. Chindan ham tarixni yaxshi biladigan o'quvchi Chingizxon Xorazm davlatiga aynan

nechanchi yili bostirib kirganligini bilishi muhim emas. Buni kerak paytda darslikdan ham bilib oladi. Lekin o'sha davrdagi siyosiy vaziyat, buyuk davlatchilik g'oyalari, Islom dunyosidagi o'zaro ziddiyatlar, Xorazmshoh saltanatidagi beqaror muhit va shunga o'xshash o'nlab omillarni ahamiyatiga qarab tahsil etish, shuning natijasida Osiyoning ikki buyuk davlati o'rtasida urushning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib berish emasmi tarixchi bo'lamani degan azamatga qo'yiladigan asosiy talab.

Xuddi shu gapni adapbiyot fani to'g'risida ham aytish mumkin. Bu nafis fan ham maktablarda sana va ensiklopedik bilimlarga tayanib o'tiladi. O'qituvchi adapbiyotning butun sehridan to'g'ri ma'noda yuz burib, bolalarning kallasini fakt va raqamlar bilan to'ldirishga majbur. Negaki, oliy o'quv yurtiga kirish uchun qaysi adib qachon tug'ilib, qaysi yili qanday asarini qancha hajmda yozganligi va qaysi sanada qanday qilib vafot etganini bilman o'quvchi oliy o'quv yurti haqida o'ylamagani ma'qul. O'quvchisi oliy o'quv yurtiga kira olmagan o'quvchisi esa darsni halollab o'tmagan degan baha sazovor bo'ladi.

Ayrim ota-onalar farzandlarini muayyan bir fan bo'yicha repetitorغا berganini ko'p kuzatamiz. Maktab



o'quvchilari yoki rahbarlari bu holga monelik qilish uyoqda tursin, hatto bu tashabbusni rag'batlantrimoqdalar. Negaki, oliy o'quv yurtiga kiruvchilar soni ko'psaya, maktabning reytingi oshadi: direktor ham, o'sha fan o'quvchisi ham rag'bat oladi. Ilmatalab bola esa ertadan kechgacha sanalarni yodlaydi, kallasiga bir necha ming megabaytlik fakt-u raqamlarni joylab oladi. Shunday qilmasa, universitetga kira olmasligini yaxshi biladi.

Bu misollarni keltirishdan maqsad shuki, maktablarda tahsil va babs-mu nozaralar asosida dars o'tishni joriy qilish uchun oliy o'quv yurtlari tomonidan qo'yiladigan talabalar qayta ko'rib chiqilishi shart. Avvalo, ijtimoiy-gumanitar, tabiiy fanlar bo'yicha kirish imtihonlaridan "sana" faktori olib tashlanishi kerak. Abituriyent mashhur "Loy jangi" qachon bo'lganligini emas, o'sha jangning sababları, tafsilotlari va Movarounnahr xalqi uchun ahamiyatini ko'proq bilishi zarur. Yoki hazrat Navoiyning "Muhokamat ul-lug'a-

tayn" asari qachon yozilgani va hajmi qanchaligini emas, o'sha mashhur asarning o'zbek tili rivojidagi ulkan ahamiyatini faktlar asosida aytib berishi zarur. Deylik, geografiya faniidan imtihon topshirayotgan abituriyent Afrika qit'asiga doir fakt-u raqamlarni "qoriyod" qilmasdan, ushbu qit'a bo'ylab xayolan sayr eta biliishi lozim.

Mamlakatimiz bo'ylab ta'lim tizimining barcha bo'g'inalarini tubdan isloq qilish jarayoni ketmoqda. Ko'pincha hamkasabalarimiz chinakam islohot quyidan boshlanishi kerak, degan fikrlarni aytishadi. Ehtimol. Lekin talab oliy ta'lim tizimididan boshlanadi. Talablar isloq qilinmas ekan, maktablarda dars o'tish sifati hech qachon o'zgarmaydi. Qoliplar asosida bilim olgan yoshlar temir izga tushgan poyezddy ketaveradi.

Mavluda AHROROVA,
Termiz shahridagi
10-maktab o'qituvchisi
Mahbuba AHROROVA,
Boysut tumani idagi
39-maktab o'qituvchisi

Dilfuza Islomova: ayrim o'qituvchilarining o'ziga repetitor kerak

O'qituvchi xato qilmaydi

"5-sinfdan boshlab ona tili darslarida diktant, adapbiyotdan esa insho va bayon yozardik. O'qituvchimiz daftarlarni yig'ib olib tekshirgach, barcha tengdoshlarim qizil ruchkada bo'yalgan xatolarga ko'z yugurtirishsa, men o'sha diktant yoki inshoni qaytadan o'qib chiqardim. Balki ustozim biror xatoni o'tkazib yubormadimikan, deb o'yaldim. Shu odamim 11-sinfni tugatguncha davom etgan, ammo daftar tekshirilgandan keyin biror marotaba xato topmaganman. Mana shu holat kelajakda o'qituvchilasini egallashimga sabab bo'lgan, aslida. Chunki o'qituvchi biz uchun mukammal inson sanalgan: u umuman xato qilmagan, adashmagan va har doim atyganlari to'g'ri chiqqan".

Dilfuzaning ideal insoni — buvusi ham ona tili va adapbiyot fani muallimi bo'lib ishlagan. U zukkoligi va bilimi bilan hammani hayrata qoldigan, gap orasida asar qahramonlarini misol keltirib, maqollar to'qigan. Bu esa nabiraning ko'p kitoblar o'qishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, yogzi ta'il paytlari kutubxonaga borib, hali darsda o'tilmagan hikoyalarni mutolaa qilib, she'rlarni yod olib qo'yari va maktabda bu bilag'onligi bilan tengdoshlarini lol qoldirardi.

2001-yili Dilfuza Islomova Toshkent davlat pedagogika universitetining O'zbek tili va adapbiyoti facultetini bitirib, poytaxtimizdagi 228-maktabda ish boshlagan chog'ida o'qituvchilik kasbinining mashaqqatini his qila boshladи. Keyinroq magistratura yo'nalishida tahsil olish jarayonida ham universitetda, ham maktabda bolalarga saboq berardi. Bu esa unga talaba va o'qituvchilarini o'z ichiga olgan ikki bo'g'inni solishtirish imkonini berdi. Ammo Dilfuzaning maktabga bo'lgan mehri ustun kelib, aspiranturada o'qish davrida yuqori sinf o'qituvchilariga ona tili va adapbiyot fanidan dars berdi. Maktabdagi jonli jarayonda o'z urinishlarining natijasini ko'rayotgan o'qituvchi ota-onalar va o'qituvchilar bilan sidqidildan ishlashda davom etdi. Universitetdagi ustoz Roza Niyozmetova rahbarligida "Adapbiyot darslarida nasriy asarlarning o'mi" mavzusida nomzodlik dissertasiyasi niyoqlab, pedagogika fanlari nomzodi bo'lgan D.Islomovani ko'plab tashkilolar ishga taklif qildi, biroq u o'zini ta'lindan boshqa sohada ko'rolmadi.

Yosh ustozga sho'x-shaddod sinf

— Maktabda 7 yil ishlagan bo'lsam, har yili eng to'polonchi yuqori sinf o'qituvchilariga sinf rahbar etib tayinlaniganman, — deydi Dilfuza Islomova. — Endigina ishga borgan paytim 5-“B” sinf o'qituvchilariga ustozlik qildim. Shunda bir hamkasbim bu sindfa sho'x-shaddod o'qituvchilar yig'ilganini, 5-“A” sindfa ham rahbar yo'qilgini, direktordan shu yaxshi sinfni so'rashimni aytgan. Men ham yosh o'qituvchiman, maktabda yan-

gi xodimman. Shu zahotiyoy direktorga tushib, "Men yaxshi ishlayman, menga 5-“A” sinf rahbarligini topshiring" deganman. Direktorimiz Mahmuda Normuhamedova "Siz ishlagani kelgan bo'lsangiz, yaxshisini emas, yomonini tanlang. Shunday qilingki, hamma sizning sinfingizda o'qishni istasin" degan. Mana shu ilk tavsiyaga haligacha amal qilaman. Ish jarayonida ham avval sifat ko'rsatichi past obyekta e'tibor qarataraman. Sinfidagi o'quvchilariga kelsak, ba'zan qattiqqo'llik qillardim, ba'zan yumshardim. Ko'p vaqt o'tmay, Mahmuda opa aytganidek bo'ldi, sinfidagi o'quvchilar soni ko'payib ketdi. 8-sinfga rahbarlik vaqtimda qiziq holat bo'lgan, bir o'quvchining onasi telefon qildi: "Dilfuza-xon, iltimos, o'g'limga aytangiz, har kuni uxlasidan oldin oyoq kiyimini artib, tishlarini yuvib yotsin". Bir qarashda bu oddiy yumush va uni o'rgatish o'qituvchining ishi emas. Ammo ota-onsa bolaga uqtirolmagan gapni ustozga ishonib ayt-di-ku. Ertasi kuni darsni tarbiyaviy soat o'tishdan boshladim va o'g'il-qizlarga gigiyena qoidalariqa rioya qilish haqida eslatib o'tdim. Ko'p o'tmay, o'quvchining onasi mendan minnador bo'ldi. Hozirda shogirdlarimning ko'pchiligi nufuzli tashkilotlarda ishlaydi. Ana shu o'quvchilarimdan birini yaqinda uchratib qoldim: "Nuqul uya ustoziym urishdi", deb kelardim. Onam "yaxshi qilibdi" deb aytardi. Ertasiga "ustozim yana urishdi", desam "to'g'ri qilibdi" derdi. Hatto ustozim onang senga e'tibor bermayapti, deb sizni ham urishdi, degaman. Onam esa bu gapni eshitib, "Menga rahmat olib kelish o'rniga shu gapga loyiq bo'ldingmi?" deya xafa bo'lganidan keyin o'qituvchilar koyisa uya yetkazib kelmaydigan bo'ldim". Afsuski, bugun ota-onalar farzandiga xatosini anglash uchun imkon berishmayapti. Nafaqat bolasimi tinglaydigan, balki ustozni haqoratlab qo'yayotgan holatlar uchrayapti.

Dilfuza Islomova o'quvchilarga saboq berarkan, ularni mutolaaga o'rgatardi. Har chorakda o'quvchilarga bitta roman o'qishni tayinlardi. "Kecha va kunduz", "Yulduzli tunlar", "Ufq", "Asraga tativlikun" kabi badiiy asarlarni o'qigan o'quvchilar qo'shimcha ball olishga muvaffaq bo'lishardi. Mualim ba'zan o'quvchilarini kitobxonlikka jalb etish uchun asarning eng qiziq joyini aytib berardi. Ba'zan esa hikoya qilish jarayonida qahramonlar o'mini almashtirib so'zlardi va bolalarga xato qilingan sujetni topishni uya vazifa sifatida topshirardi. Har bir roman o'qilgandan keyin muhokamalar boshlanardi. Masalan, Zebining hayotida keyingi taqdirlini belgilab bergan birgina xatti-harakati, ya'ni qo'shiq aytgani, ovozi o'quvchilarga ta'sir qilgan. Chingiz Aytmatovning manqurt obrazni tasviri va bugungi kunda ham uchrayotgan zamonaviy manqurtlar — na bilimga, na tarbiyaga ega bo'lgan insonlar borligi bahs-munoza'larga sabab bo'lardi. "Ufq"dagagi qochoq qahramonga o'quvchilar tomonidan yozilgan maktub esa unutilmas voqeja bo'lgan o'shanda. Darsda 30 nafar o'quvchi o'zining ichki kechin-

malarini qog'ozga tushirgan. Bu metod yaxshi natija bergan. O'qituvchi bolalar ruhiyatidagi o'zgarishlarni bilib olgan va buni sir tutgan holda muammolarga yechim izlagan.

27 yoshda direktor, 28 yoshda deputat

Dilfuza opa o'qituvchida ikki xislat bo'lishi kerak deb hisoblaydi: bilim va qat'iyat. U mana shu xislati tufayli o'zi faoliyat yuritayotgan maktabga 27 yoshda direktor etib tayinlandi. 28 yoshida esa Toshkent shahar xalq deputatlari kengashi deputati bo'ldi. Har bir jarayonda tartib-intizomli, ilg'or va uddaburonligi bilan e'tirof etildi. Uning o'quvchilar darsga kech qolishmas yo biror o'quvchi uy vazifasini bajarmasdan kelmasdi, hamma maktab formasida kelardi.

— Maktab uyimizga juda yaqin bo'lgan, — deydi u. — O'quvchilarim ham o'zim yashaydigan hududda yashashardi. Ishdan keyin uyimga keta-yotganimda ko'chada o'ynab turgan bolalar to'pini yoki o'yinini tashlab ketib qolishardi. Ba'zida xafa bo'lardim. Maktabda ham o'quv zalida turgan bo'lishsa, meni ko'rib yugurib kirib ketishardi. Endi tushunsam, bu qaysidir ma'noda o'quvchining o'quvchiga bo'lgan hurmati eman.

Sir emaski, hozir direktor yo o'qituvchini ko'rsa pinak buzmaydigan bolalar ham bor. "Men o'qituchi bo'lamani" deydi o'quvchini esa juda kam uchratamiz. Inson qaysi kasbni egallamasin, o'z ishining bilimli va ustasi bo'lsa, o'sha kasb eng a'lo sanaladi. O'z kasbini a'lo sanagan Dilfuza Islomova 7 yillik direktor faoliyatini davomida maktab nufuzi ko'tarildi. 950 o'ringa mo'ljallangan maktabda dastlab 810 nafar bola o'qiyotgan bo'lsa, bu ko'sratkich 1,9 koefitsiyentga chiqdi, o'quvchi soni 1600 nafarga yetdi. Bu natijaga erishish uchun direktor yon-aroftagi muassasalar faoliyatini kuzatdi, hatto ta'il paytlari uchun o'quvchilar malakasini oshirish ishlarni tashkil etdi va fidoyi pedagoglarni munosib rag'batlantirib bordi. D.Islomova jamoada do'stona muhit yaratib, boshqaruva tizimida o'z jonkuyarligini ko'rsatdi. U 2015-yilda Toshkent shahar Xalq ta'limi bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinsosari lavozimiga tayinlandi.

— Poytaxtimizdagi maktablarda barsha shartaroit hayuayo, — deydi u. — O'quv binolari zamonaviy anjomlar va elektron jihozlar bilan ta'minlangan. Faqat o'quvchidan sifatlari dars o'tish talab etilayapti, xolos. Asosiy e'tiborini yaxshi dars tashkil qilishga emas, 45 daqiqani o'tkazishga qaratayotgan pedagoglar ham yo'q emas. Bir tomonidan ota-onalar o'quvchilarini qo'llab-quvvatlashmayapti. Masalan, hozirgi vaqtida onlaysiz tarzda bilim olishga ruxsat berildi. Ammo aksariyat 10-11-sinf o'quvchilar onlaysiz ta'lim olish bahonasida maktabga kelmayapti. Xo'sh, ular haqiqatan ham uydan chiqmay, karantin qoidalariqa rioya qilib, jamaot joylariga borishmayapti? Onlaysiz darslarda to'liq ishtiroy etishyaptimi? Afsuski, bunday



emas. Ular allaqachon mehnat qilib, pul topishga kirishib ketishgan. Ayrimlari oshxonasi va sexlarda ishslash uchun maktabga kelmaydi. Eng yomoni, bundan ayrim otilalar kursand bo'lishadi.

Ba'zi o'quvchilar repetitorga borish-gani uchun darsga kelmaydi, bu ham tizimdagidagi muammoli jihatlardan biridir. Agar maktab o'quvchisi darsini mukammal o'tsa, qo'shimcha dars uchun ham bola maktabda qoladi va bundan o'quvchi ham manfaatdor bo'ladi. Quvonarlisasi, o'tgan yili yuqori sinflar uchun variativ darslar o'tish imkonini berildi. Bunda o'quvchining faniga qiziquvchi o'quvchilar saralab berildi va mashg'ulot soati ham ko'paytirildi. Afsuski, hozirda ayrim o'quvchilarining o'zlariga repetitor kerak. Ayniqsa, fizika, matematika, biologiya o'quvchilarining bilimi pastligi attestatsiya jarayonlarida ham ko'zga tashlanib qoldi, 70 foiz o'quvchilar sinovlardan o'tolmayapti. Necha yillardan buyon bizni aniq va tabiiy fanlardan o'quvchilarining nega bilimi sustligi o'ylantirib kelgan. Endi ko'rinyaptiki, aksariyat o'quvchilarining o'ziga repetitor kerak. O'zining bilimi "3" bahoga tortib-tortmay turgan bir vaqtida u ta'lim bergan o'quvchi qanday qilib "4" yoki "5" bahoga loyiq bo'lsin! Mana shu muammolarga yechim sifatida Britaniya menejmenti o'quvchilarini tomonidan pedagoglarga STEAM darslari o'tilayapti. Hozircha 150 nafar aniq va tabiiy fan o'quvchilarini ba jarayong'a jalb etildi. Xan akademiyasi bilan hamkorlikda kimyo va matematika fani o'quvchilarini malakasi oshirilmoqda. Bu borada uchta katta yirik loyiha ustida ish olib boryapmi?

Xalq ta'limi a'lochisi D.Islomova 21 yillik pedagogik faoliyatini mag'zit to'q mazmun-mohiyatiga ega. Ta'lim tizimi rivoji yo'lida timay xizmat qilayotgan, kech maktablardagi o'quv sifati uchun quvvatini sarflayotgan D.Islomova ba'zan talabchan, qattiqko'l tuyuladi. Ba'zan esa dunyoqarashi va insoniyligi bilan suhbатdoshimi rom etidi. U bor joyda saranjom-sarishtalik, tartib-intizomni ko'rish mumkin. Qahramonimiz o'zi sevgan yashil gullardek beg'ubor, latofati va samimiy ayol. U kitoblarda oila, tinchlik ramzi ila sifatlangan anor donalariha mehr qo'yan. Bu ramziy ishtiyoyq uning turli toifadagi insonlar bilan ishlashi bilan bog'liqdir, balki. Zero, inson qalbi ham uning ko'ringanidek bo'imas, anor donalaridek sirla: goho shirin, goho nordon. Mashhur aktrisa Odri Xepbyorn aytganidek, karningdir ikkinchi nusxasi bo'lishga harakat qilgandan ko'ra, o'zingizning eng yaxshi – asl nusxangiz bo'ling.

Iftixor

Ilmga ixlosi baland edi...

Onamning bobosi, mening katta bobom Abrorxo'ja Orifxo'jayev ikkinchi jahon urushida yurt uchun fidokorona kurashgan insonlardan biri.

Katta bobom 1905-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Kasb-kori sartarosh bo'lib, kitobga, umuman olganda diniy va dunyoviy ilmga juda ixlosi baland bo'lgan ekan. Oliy ma'lumot olmagan bo'lsa-da, ilmli, kamtar, olijanob va samimiy, halol inson bo'lgan. 50 milliondan ortiq kishining yostig'i quritgan dahshatlari urushga otlanganida oilali, to'rt farzandning otasi (uch o'g'il, bir qiz) edi. 1941-yili yurt tinchligi yo'lida Ukraina frontiga jo'nab ketadi.

1946-yili bo'linma Moskva harbiy okrugiga ko'chiriladi va u yerda 1947-yilning 21-mart kuni tarqatib yuboriladi. 1945-yili Berlingacha borib,

urush yakunlanganidan so'ng, yaralanib, souvuq ob-havoda astma kasalligini orttirib Ona vatani va oilasi bag'riga qaytdi.

Bobom katta buvum, ya'ni ayoliga urushdan yuborgan surat orqasidagi bitiklar hozirgacha saqlanib qolgan: "Saidamin, men senga hozirgi kunlarimdag'i o'tkazayotgan turmushim estaligi uchun ushbu rasmimni yubordim. Arifodjajev Abror".

Saidamin bobomning to'n-g'ich farzandining nomi bo'lib, o'sha davrda er-xotinlar bir-birini katta farzand nomi bilan chaqirar ekan.

Aytishlaricha, bobom urush to'g'risida ko'p so'zlashni



yoqtirmas, bunday xotilar unga azob berishimi ta'kidlarkan. Bir safar to'satdan tushgan bomba bobom va rus komandir o'trog'idan boshqa barchanining umriga zomin bo'libdi. Ikki kishi oskolka bilan yaralanib, qolganlar vafot etgan. Buni xotirlab, urushning qanchalik

dahshatli ekanligini bot-bot takrorlagan ekan. O'shanda shundoqqina yonlaridagi xizmatdosh do'staridan aylilish, urush tufayli juda ko'p insonlar qurban bo'lganini ko'rish unga juda qattiq ruhiy ixtiroblar bergan. Keyinchalik ham ana shu ixtiroblar u kishiha tinchlik bermagan.

Urushdan keyin yana ikki o'g'il, ikki qiz, ya'ni sakiz farzandning otasi bo'lib, ajdoldardan meros kasbi — sartaroshlikni davom ettirdi. 50-yillardan to umrining so'ngiga qadar O'r dadagi katta sartaroshxona mudiri bo'lib faoliyat yuritadi.

Bobom eski maktabda savod chiqarib, arab tilida o'qishni juda yaxshi o'zlashtirgalligi bois mahalladagi tengqur bobolar tez-tez ularning uyalariga chiqib, issiqqina sandal atrofida "Shohnoma", "Abo

Muslim" kabi nodir durdona asarlarni bobomdan tinglasharkan. Urushdan omon qaytganlar har bir onni g'animat bilib, ishdan tashqari ko'plab kitoblar mutolaa qilishni xush ko'rishgan ekan.

Bobom 1969-yilning oktobri oyida vafot etgan. Vafotidan bir oy o'tib xizmatdosh komandir do'sti Moskvadagi arxiv orqali bobomini qidirib uyiga kelgan. Ammo qadrondinining bir oy oldin vafot etganini eshitib, chuqur qayg'uga botib, Abrorxo'ja Orifxo'jayev juda yaxshi inson bo'lganligini qayta-qayta takrorlab, yig'lab qaytib ketgan ekan.

Bobom Abrorxo'ja Orifxo'jayevning vatapvarligi, halolligi, mehnatkashligi va oilaparvarligi biz avlodlar uchun ibrat maktabi bo'lib qoldi.

**Azizaxon SHODIYEVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan
san'at maktab-internati
o'qituvchisi,
san'atshunos**

"Urush... bolam, urush"

Inson hayoti juda qiziq. Kimdir tasodiflarga, kimdir ko'rgan tushiga, yana kimdir o'z xayilot olamiga ishonadi ba'zida. Menku aslida bunaqa narsalarga unchalik ahamiyat bermayman, lekin yaqinda...

Gapning indallozini aytadigan bo'lsam, kecha bobom tushimga kirdi. "Marhumlar bejiz tushga kirmaydi", degan fikr xayolimdan o'tdi-da, o'zimcha tushimni sharhla-moqchi bo'ldim. Ammo qanchalik harakat qilmay, buni uddalashimga ko'zim yetmadni. Kechasi ko'rgan tushimni eslay olmadim (bu holat menda tez-tez takrorlanib turadi). Anchadan beri bobomni xotirlamay qo'yganimga qalban iqror bo'lib, o'kindim. Shu payt yaqinda o'qigan qaysidir kitobdagi jumlalari yalt etib ko'z o'ngimidam o'tdi: "Bizning bu dunyodan o'tgan ajodolarimiz har safar ularni duolarimiz orqali yo'qlaganimizda minnatdor bo'lib, g'oyibona uymizga tashrif buyurishadi".

Biz unutganlarimiz boqiy dunyoda mavhumlik botqog'iga g'arq bo'lishlari mumkinligi xayolimdan o'tib, ko'nglim biroz xijil bo'ldi. Xayilot olami meni bolaligim tomon yetakladi. Bobom anchayin keksayib qolgan. Zo'rg'a qadam tashlar, ko'zlar xiralashgani yetmagan-day eshitish qobiliyati ham maqtaguday emasdi. "Ilohim, qariganda hech kimga muhtoj qilmasin-da", degan gapni bot-bot takrorlashni odat qilgandi. O'shanda bu gapning mohiyatini unchalik anglamasanda, bu jumla zamirida allaqanday bir niyat mujassam ekanligini his qilardim. Meni qiziqitradigan yagona narsa — bobomning oq-qora tasvirdagi fotosuratida ko'ksini bezab turgan medallar va ko'p vaqtlardan beri ochilmaydigan sandig'iida turgan yaltiroq sovrinlari edi. "Bobo, bular nima, bularni qayerdan olgansiz?" kabi savollarni

yog'dirishim bilan u allaqanday ma'yus tortib qolardi. Savollarimga javoban esa "Urush... bolam, urush" deb qo'ya qolardi. O'sha kezlarda urush nimaligini unchalik tushunib yetmasam ham, u biz yaxshi ko'rib yeydigan quymoqqa o'xshash narsa emasligiga aqlim yetardi...

Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga 1,5 milliondan ortiq vatandoshimiz qatori mening bobom ham hissa qo'shgan. Hayotning achchiq-chuchugi, oq-qorasini tanib ulgur-magan 27 yoshli yigit uchun urush dahshati begona bo'lishi mumkin. Biroq urushning dahshati har qanday insonni lahzada ulg'aytirishi hech yolg'on emas! Bobomning birgina "Urush... bolam, urush" degani zamirida qancha ixtiroblar mavjudligini bugun yaxshi idrok eta olaman. Kuli ko'kka sovurilgan binolar, payhon bo'lgan dalalar, tanklarga to'lib-toshgan ko'chalar, osmonni larzaga solgan bombalar, ochlik va uqbudtan ayanchli ahvolga tushib qolgan insonlar — bularning barchasi umrbod suratga aylanib kino tasmalarida qolib ketishini istayman! Bunday tinchlik zamoniya yetib kelishimizda bobomga o'xshagan minglab, millionlab fidoyi insonlar ko'rgan qiyinchiliklar oldida har qancha ta'zim qilib, bosh egasak, shuncha kam. O'tganlarining xayrlı ishlarni doim yodga olib, xotirlash va qadrlash biz uchun ham qarz, ham farzdir!

O'tkir RUSTAMOV,
Qarshi shahridagi
8-maktab o'qituvchisi

Yurtimizga xizmat qilayotgan barcha soha vakillarining kasb bayrami bor va ularni keng miyosida nishonlaymiz. Ammo bayramlar orasida men eng ko'p kutadiganim 9-may — Xotira va qadrlash kuni. Nega deysizmi? Chunki bu kun bobomning bayrami.

Bobomning bayrami

Bobom Ikkinci jahon urushida qatnashib, ko'ksi to'la ordenlar bilan qaytgan. To'g'ri, o'sha paytlarda men dunyoga kelmaganman, bobomning jasoratlarini ko'rmanganman. Ammo bobom hanuzgacha bizga o'sha kunlarda bo'lgan voqealarni hikoya qilib beradi. Bobomning hikoyalarni eshitish maroqli va qiziqarli bo'lish bilan birga achinarli hamdir. Negadir ko'zlaridam duvillab yosh quyilib ketaveradi.

Bir burda non yeish uchun tong saharden navbatda turardik. Olib kelingan bir bo'lka non to'qqiz kishiga qanchadan ham tegardi. Men oilada eng kichik bo'lganim uchun akalarim ulushlarini menga ilinshardi, — dedi bobom.

— Bobojon, urushga borganingizni aytib bering. Avtomat bilan dushmanlarni otganmisiz? — deya bidirлаганча savolga tutadi ukam.

— Urush boshlanganida uch akam va otamni frontga olib ketishi. Ulardan qoraxat kelgan kun hech esimdan chiqmaydi. Onam mendan yashirinchcha rosa yig'lagan. Keyin rais uyimizga kelib, onamni daлага chiqarib ketgan. Men o'n olti yoshta to'lganidan keyin urushga otlandim. Onam rozi bo'lmay, oyoqlarimni quchoqlagancha izillab yig'ladi. Lekin men frontga borsam, akalarimni olib kelishimni aytib, jo'nab ketdim. Afsuski, ularni topolmadim. O'zim esa yarador bo'ldim. Gospitalda o'ng oyog'imni kesishdi. Mayli, shunisigayam shukr, deb qishlog'imga qaytdim. Onam bechora kelgunimcha olamdan o'tibdi. Bizning dardimizga chiday olmagan-da, sho'rlik Hayhotdek hovlida bir o'zim goldim.

Bobomning hikoyalari uzundan uzoq. Hali qarasang, urushdagi og'aynini Vadiimni gapirib bersa, ba'zida qozoq do'sti Xudoyberganni ko'z oldida qanday otib tashlashganini ko'zlarida yosh bilan so'zlaydi.

— Bobojon, yaxshiyam, siz o'sha urushdan qaytib kelibsiz. Mana endi 9-may sizning bayramingiz bo'ldi, deyman mahkam quchib.

Bobom mammun bosh iring'ab qo'yadi. Ammo ma'yusgina ko'zlarining tub-tubida o'tmishning qayg'uli kechinmalari o'z izini qoldirganini ko'rib, yuragim ezilish ketadi.

Men 9-may — Xotira va qadrlash kunini nega yaxshi ko'rishimni endi anglagandirsiz? Chunki bu kunda bobom va uning yuzlab do'starlari vataniga, oilasi bag'riga qaytgan. Garchi uning akalari, otasi qaytman bo'lsa-da, bobom kabi jasur o'g'lonlar bizni himoya qilishda davom etish uchun qaytishdi. Bizga bugunning qadriga yetish, o'sha alamli kunlarni eslatish uchun qaytishdi.

Ziyoda ADHAMOVA,
Qibray tumanidagi
17-maktabning 5-sinf o'quvchisi

Jarayon

Ma'naviyat universiteti

Keyingi yillarda til, adabiyotga e'tibor millatga e'tibor ekanligidan kelib chiqib misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lif-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarda o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish maqsadida 2016-yil 13-mayda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilishi buning yorqin isbotidir.

Universitet o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha filolog mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar, yuqori malakali tarjimonlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayni shu yo'naliishlarda ilmiy va o'quv-metodik materialni ishlab chiqish bo'yicha tayanch oly ta'lif muassasasi hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur ta'lif muassasasida O'zbek filologiyasi, O'zbek tili va adabiyotini o'qitish, Tarjima nazariysi va amaliyoti, O'zbek tili filkulitetlari hamda 14 ta kafedrada 204 nafr professor-o'qituvchiga 3854 nafr talabaga saboq berib kelmoqda.

O'tgan besh yil mobaynida o'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariyi, falsafiy-estetik asoslarini, zamonyaviy ta'lif texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, ilmiy, badiiy va boshqa sohalardagi adabiyotlarni o'zbek tilidan ingliz va boshqa xorijiy tillarga tarjima qiladigan tarjimonlar, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash uchun ta'lif jarayoni, o'quv reja va dasturlari, yangi pedagogik texnologiyalar hamda o'qitish usullari chet el tarjibasi hamda mahalliy an'analar asosida takomillashtirildi. Jumladan, keyingi uch yilda 18 ta darslik va 21 ta o'quv qo'llanma, ya'ni yangi avlod o'quv adabiyotlari yaratilib, ta'lif jarayoniga keng tatbiq etildi.

Universiteda dastlab "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)", "O'zbek tili va adabiyoti", "O'zbek-ingliz tarjima nazariysi va amaliyoti" bakalavriat ta'lif yo'naliishlari, "Lingvistik (o'zbek tili)", "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)", "O'zbek tili va adabiyoti" magistratura mutaxassisliklari yo'lg'a qo'yilgan bo'lsa, hozirda ular bilan birga "O'zga tili guruhlarda o'zbek til", "Noshirlik ishi", "Tarjima nazariysi va amaliyoti: ingliz tili", "Tarjima nazariysi va amaliyoti: rus tili" ta'lif yo'naliishlari, "Matnshunoslik va adabiy manboshunoslik", "Adabiyotshunoslik (oliy adabiyot kursi)", "Folklorshunoslik va dialektologiya", "Sinxron tarjima (ingliz tili)", "Kompyuter lingvistikasi" mutaxassisliklari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2018-yilda Ahmad Yassaviy nomidagi Qozog'iston xalqaro universiteti (Qozog'iston Respublikasi) bilan o'zaro hamkorlik memorandumiga ko'ra qo'shma dastur asosida Adabiyotshunoslik (turkologiya) mutaxassisligi, 2019-2020-o'quv yillardan Turkiya Respublikasining Anqara Hoji Bayram Vali nomidagi Anqara universiteti bilan birgalikda "Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyoti" magistratura mutaxassisligi tashkil qilindi. Kelgusida "Amaliy filologiya", "Kompyuter lingvistikasi", "Psixiologiya (faoliyat turlari bo'yicha)", "Matnshunoslik va adabiy manboshunoslik", "Folklorshunoslik va shevashunoslik", "Sotsiologiya" kabi ta'lif yo'naliishlari, "Badiiy tarjima (ingliz tili)", "Ilmiy-teknik tarjima (ingliz tili)", "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik

tarjimashunoslik (ingliz tili)" mutaxassisliklari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyivchi resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni mutazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlari belgilash, zamonaviy bilingva ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish muhim masalalardan sanadli. Shu bois ta'lif dargohida o'zbek tili va adabiyotining xalqimiz, jamiyatimizning ma'naviy rivoji, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'mi va roli bilan bog'liq dolzarb mavzularda ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, monografiya hamda nufuzli xorijiy jurnalarda ilmiy maqolalar nashr qilinmoqda. Buni yillar kesimida raqamlarda ifodelaydigan bo'lsak, quydagicha ko'rinish hosil qiladi. 2017-yilda 22, 2018-yilda 25, 2019-yilda 29, 2020-yilda 35 nafr filologiya fanlari doktori (DSc), 2017-yilda 32, 2018-yilda 47, 2019-yilda 68, 2020-yilda 81 nafr filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD) faoliyat yuritdi. Ilmiy salohiyat ko'rsatilgan yillarni mos ravishda 43,9; 56,6; 59,2; 58,6 foizni, dissertasiya himoya qilganlar soni jami 51 nafrni tashkil etdi. 2017-2020-yillarda oraliq ida jami 94 ta monografiya, 323 ta xorijiy jurnalda maqola e'lon qilindi, intellektual mulk uchun 9 ta patent, axborot texnologiyalariga doir dasturlar va elektron bazalar uchun olingan hamda muallifik huquqi bilan himoya qilinadigan 46 ta guvohnoma qo'lg'a kiritildi. Xalqaro bazalarda professor-o'qituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtibosliklari ko'sratkichi ham o'sib borish tendensiyasiga ega. Ya'ni, bu daraja 2017-yilda 2 ta, 2018-yilda 48 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 231 ta, 2020-yilda 239 taga yetdi.

Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik miqyosini kengaytirish, bakalavr, magistr, ilmiy izlanuvchi hamda professor-o'qituvchilar uchun almashinuv dasturlarini yanada rivojlantirish maqsadida yetakchi xorijiy OTMlar bilan 71 ta memorandum va shartnomaga imzolandi. Ulardan 38 tasi OTM va ilmiy tashkilotlari bilan imzolangan memorandum, 22 tasi assortsiyatlarga a'zo bo'lish xususida uch tomonloma shartnomasi, 8 tasi talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuv dasturi haqidagi shartnomasi, 3 tasi qo'shma ta'lif dasturlari asosida magistratura mutaxassisliklari tashkil etish bo'yicha ikki tomonloma shartnomasi. Buning natijasi o'laroq, 2019-yilda 52 nafr professor-o'qituvchi va 62 nafr talaba, 2020-yilda esa 16 nafr professor-o'qituvchi va 28 nafr talaba 15 dan ortiq xorijiy OTMlar da almashtinuv dasturlari asosida o'quv va boshqa jarayonlarda ishtirot etdi. O'z navbatida, 2018-2019-o'quv yilida universitet ta'lif jarayoniga yetakchi xorijiy

OTMlardan 13 nafr, 2019-2020-o'quv yili 18 nafr malakali mutaxassis jalb etildi. Jumladan, AQSH, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Rossiya Federasiyası, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi universitetlarining professor-o'qituvchilari ToshDO-TAU talabalari, pedagoglar jamaosiga ma'ruza, master-klass, seminar-trening va amaliy mashg'ulotlar olib bordi.

Universiteda talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar uchun mahalliy, xalqaro axborot va ma'lumotlar bazalardan foydalaniši uchun barcha sharoitlar mavjud. Jumladan, har bir kafedrada 4 tadan kompyuter, mustaqil ta'lif zalida 100 dan ortiq kompyuter, ARMning 2-qavatida 47 ta kompyuter internet tarmoniga ulangan va wi-fi zonalaridan ham bepul foydalanan imkoniyati yaratilgan.

Biz talabalar hayotining rang-barang va yorqin bo'lishiga harakat qilamiz. Shu maqsadda Talabalar kengashi tashkiloti tuzilgan. Kengash hammaslak yoshlarining kuchi jamoasi bo'libgina qolmay, atrof-muhitga befarq bo'lmagan katta ahil oila hamdir.

Universiteda talabarning ijtimoiy faoliigini oshirish maqsadida turli yo'naliishdagi jamiyatlar va birlashmalar faoliyat olib boradi. Ilmiy iqtidorga ega talabalar "Yosh filolog olmlar jamiyat" ga a'zo bo'ladilar. Jamiyat talabarning ilmiy-tadqiqot ishlari turli tadbirlar, ilmiy anjumanlarda namoyon qilish imkoniyatini beradi. "Yosh filolog olmlar" jamiyat tomonidan har yili noyabr oyida respublika miqyosidagi "Filologiya masalalari - yosh tadqiqotchilar nighogida" mavzusida an'anavyi ilmiy anjuman, aprel oyida "Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar" universitet miqyosida talabalarining ilmiy-amaliy anjuman o'tkazib kelinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martda qabul qilingan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga ko'ra mazkur universitet oly ta'lif muassasalarida o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining malakasini oshirish, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish hamda atamashunoslik bo'yicha tayanch oly ta'lif muassasasi etib belgilandi. Shu bilan birga, ushbu me'yoriy hujjat asosida universitet qoshida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi davlat universitetlari hamda pedagogika institutlari huzurida hududiy bo'linmalarga ega. Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi tashkil etildi. Bugungi kunda mazkur markazda vazirlik va idoralar, mahalliy iyo etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari xodimlarining o'zbek adabiy tili me'yorlari, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslarini, rasmiy hujjatlar va ularga sertifikatlar topshirildi. Bu viloyatlardan kesimida Qoraqalpog'istonda 176, Andijonda 94, Buxoro 103, Sirdaryoda 176, Jizzaxda 107, Navoiyda 152, Namanganda 103, Samarqandda 137, Surxondaryoda 161, Qashqadaryoda 100, Xorazmda 84, Farg'onada 141, Toshkent shahri bo'yicha 592 nafrni tashkil etadi.

2021-yil yanvar-mart oylari mobaynida 117 ta guruh tashkil etilib, 2613 nafr tilingovchi o'qitildi va ularga sertifikatlar taqdim etildi. Mazkur ko'sratkichi viloyatlar kesimida Qoraqalpog'istonda 214, Andijonda 124, Buxoro 176, Sirdaryoda 197, Jizzaxda 114, Navoiyda 219, Namanganda 116, Samarqandda 186, Surxondaryoda 114, Qashqadaryoda 154, Xorazmda 200, Farg'onada 170, Toshkent shahri bo'yicha 666 nafraga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, aholining yozma va og'zaki savoxlonligini oshirish, o'zbek adabiy tili me'yorlari bo'yicha amaliy bilimlari, ko'nikma va mahoratini tizimli asosda oshirish borish bo'yicha markazda 2 ta guruhi shakkantilid, 53 nafrat tilingovchi o'qitildi.

Ko'phililikka yaxshi ayonki, chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsniga O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida" qonuniga o'zgartirish kiritish yuzasidan taklif olti oy mobaynida keng jamoatchilik muhokamasidan o'tdi. Yangi tahridagi qonun 2020-yil 13-mart kuni imzolandi. 2020-yil 15-sentabrda boshlab kuchga kirgan ushbu sohbu onunning 19-moddasiga O'zbekiston fuqaroligiga umumiy tartibda qabul qilishning asosiy shartlaridan biri sifatida ariza topshirgan shaxsning davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilishi ham kiritildi. Ushbu moddaga asosan davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasini tomonidan belgilanishi mustahkamlab qo'yilgan. Nizomga ko'ra davlat tilini bilish darajasini aniqlash va davlat namunasidagi malaka sertifikati Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi yoki uning hududiy bo'limlari tomonidan berilishi qayd etilgan. Davlat tilini bilish darajasini aniqlashga tayyorgarlik ko'rish, test materiallarini tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ta maxsus ta'lif vazirligiga tomonidan shakllantiriladigan ischi guruhi ariza topshirgan shaxsning nutqiy, lingvistik, matnni tushunish kompetensiyalariga e'tibor qaratadi. Markaz va uning hududiy bo'limlari tomonidan 2020-yil dekabr oyidan 2021-yil aprelgacha davlat tilini bilish darajasini aniqlash hamda imtihondan muvaffaqiyatlari o'tgan fuqaroligi yo'q 945 nafr talabgoriga Davlat namunasidagi sertifikatlar berildi. Joriy yilning mart oyidan boshlab o'zga millat vakillari va o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun 3 oylik "O'zbek til" kurslari tashkil qilindi. Hozirgi kunda vazirlilik, idoralaridan tavsija qilingan 80 nafrat tilingovchi o'zbek tilini o'rganiqoqda.

Qolaversa, fundamental fanlar, zamonyaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'mini egalashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklari, etimologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois universitet professor-o'qituvchilar ham o'zbek tilini siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda qo'llash, ta'limga tiling barcha bosqichlarida davlat tili o'qitilishi hamda o'zbek tili va adabiyotini oshirishda rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar doirasini kengaytirish, undan davlat tili sifatida to'liq va to'g'ri foydalananishni ta'minlash, davlat tilining zamonlarga axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvni, xalqaro miqyosidagi o'rniga nufuzini oshirish yo'lidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bormoqda. Bi so'z bilan aytganda, jamaoa mamlakat rahbari ta'riflagan "Ma'naviyat universiteti" degan yuksak nomga hamda jihatdan munosib bo'lish uchun birdamlik bilan sa'ya-harakat qilib kelmoqda. Zero, til va adabiyot rivoji millat taraqqiyotining gavrovidir.

Baxtiyor ABDUSHUKUROV, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti dekanı, filologiya fanlari doktori, professor

O'qituvchiga yordam

Cheva teoremasi


O'quvchilar uchun eng foydali bilimlar manbayidan biri bo'lgan geometriya fani o'zining nafaqat qat'iyligi va aniqligi, balki go'zalligi bilan ham alohida ajralib turadi. Bunday go'zalliklardan biri uchburchakdag'i ajoyib nuqtalar ekaniga hech shubha yo'q. Quyida shu haqda qisqagina so'z yuritamiz.

Tarif: Uchburchakning bir uchini qarama-qarshi tomonda yotgan ixtiyoriy nuqta bilan tutashiruvchi to'g'ri chiziqlar Cheva to'g'ri chizig'i yoki chevian deyiladi.

Teorema: ABC uchburchakning uchlardan chiqib, uming mos qarama-qarshi tomonlarini A' , B' , C' nuqtalarda kesib o'tuvchi chevianlar faqat va faqat

$$\frac{AC'}{C'B} \cdot \frac{BA'}{A'C} \cdot \frac{CB'}{B'A} = 1$$

bo'lganda bitta nuqtada kesishadi.



Istob: B va C nuqtalar orqali AA' to'g'ri chiziqa parallel bo'lgan to'g'ri chiziq o'tkazamiz. Natijada bir qancha o'xshash uchburchaklar hosil bo'ladi va quydagi o'xshash uchburchaklardan bevosita foydalanimiz: $\Delta DBC \sim \Delta KA'C$, $\Delta ACE \sim \Delta AKB$, $\Delta AKC' \sim \Delta BDC$.

DBC va $KA'C$ uchburchaklarning o'xshashligidan:

$$\frac{BA'}{A'C} = \frac{DB}{CE}$$

tenglikka ega bo'lamiz. CEB' va

AKB' uchburchaklarning o'xshashligidan esa

$$\frac{CB'}{B'A} = \frac{CE}{KA}$$

tenglik hosil bo'ladi. Va nihoyat,

AKC' va DBC' uchburchaklarning o'xshash ekan-

$$\frac{AC'}{C'B} = \frac{KA}{DB}$$

nidan $\frac{AC'}{C'B} = \frac{DB}{CE}$ tenglik o'rinci. Yuqorida keltirilgan uchala tenglikni hadma-had ko'paytiramiz:


$$\frac{BA'}{A'C} \cdot \frac{CB'}{B'A} \cdot \frac{AC'}{C'B} = \frac{DB}{CE} \cdot \frac{CE}{KA} \cdot \frac{KA}{DB} = 1$$

Teorema isbotlandi.

Teskari teorema: ABC uchburchakning AB , BC va CA tomonlaridan olingan C' , A' va B' nuqtalar uchun

$$\frac{AC'}{C'B} \cdot \frac{BA'}{A'C} \cdot \frac{CB'}{B'A} = 1$$

tenglik o'rinci bo'lsa, AA' , BB' va CC' to'g'ri chiziqlar bitta nuqtada kesishadi.



Istob: ABC uchburchakning AB , BC va CA tomonlaridan C' , A' va B' nuqtalarni olaylik.

— O'g'lim, senga yaqindagina oyoq kiyim olib bergen edim-ku, nima qilasan buni, juda qimmat ekan. Buning narxiga kamida o'nta kitob sotib olsa bo'ladi, — dedi otam o'ya tolib. — Aksiga olib, onang kasalxonada bo'lsa...

— Bitiruv kechasiga hamma sinfohlarim bir sidradan yangi kiyim sotib olishadi, — xarxashani boshladim men. — Nima, mening ulardan kam joyim bormi?

— Sen meni to'g'ri tushunishing kerak, o'g'lim. Men ham, onang ham oddiy o'qituvchi bo'lsak, erta-indin Toshkentga institutga ketmoqchisan. O'qishga kirsang, boshdan-oyoq hamma narsangni olib berishni niyat qilib qo'yganimiz.

— Dada, siz meni yaxshi ko'rmaysiz. Agar yaxshi ko'rganiningizda sotib olib berardi, — diydiyomni davom ettirdim.

Tufini qo'lga kiritish uchun o'zimcha ronga kirib, ko'zyosh to'kib yig'lashga ham tayyor edim. Otam ma'yus bo'lib goldi.

— Mayli, o'g'lim, bitiruv kechasigacha bir gap bo'lar, juda bo'lmasa uydagi qo'chqorni sotarmiz, olib beraman, — dedi otam.

— Rahmat, dadajon, men sizni yaxshi ko'raman.

9-may kuni oyim bilan qishloqda yashovchi buvilmalnikiga keldik. Bobomning bir-ikkita mayda-chuyda ishlariq qarashdidi. Kechga qadar qishloq bolalari bilan rosa to'p tepishib, qosh qorayganda kirib keldim.

— Buvi, bobom qani?

— Qo'shnimiz Sharif bobonikida. Ma, buni ularnikiga olib bor, — buvum osh o'ralgan dasturxonni qo'limga tutqazdi.

Sharif boboning hovlisi juda keng bo'lib, deyarli hamma joyi gulzor edi. Namozshomgul va rayhon hidi ufurib turardi. Hovlining o'tasida katta balxit bo'lib, uning ostiga qo'yilgan kartada yoshi ancha joyga borib qolgan, yillar yuzlariga son-sanoqsiz ajinlar tortgan Sharif bobo bobom bilan gurungashib o'tirardi. Salom berib, ovqatni dashturxonqa qo'ydim.

— Mening eng kichik nabiram, bu yil maktabni bitiradi, — dedi bobom o'zicha g'ururlanib. — Mendan xabar olishga kelgan.

— Kel, dasturxonga yaqinroq o'tir, o'qishlarining yaxshimi? — dedi Sharif boba.

— Rahmat, bobojon, bayramlaringiz

muborak bo'lsin, o'zingizning sog'liqlarigiz yaxshimi, — so'rashdim men ham.

— Xudoga shukur, yaxshi. Ikkala oyog'i ham yo'q odam — yarimta odam bo'ladi, bo'tam, — Sharif bobo kart chetiga ishora qildi.

Bobo ko'rsatgan tomonda bir juft yasama yog'och oyoq turardi. Sekingina qayrilib, Sharif boboning oyoqlariga qaradim-u hayratdan qotib qoldim. Ikkala oyog'inining ham tizzasidan pasti yo'q edi.

— Bu, la'natni urushdan qolgan "sovg'a", oyoqlarim begona yurtlarda qolib ketdi, — bir nuqtaga tikilgancha jum qoldi boba.

Tarix faniga qiziqqanim uchun tilimga kelgan savolni qaytara olmadim:

— Bu qanday bo'lgan, bobojon?

Eski tarixni so'rab nima qilasan, bo'tam. Bu Kursk shahri yonidagi janggohda bo'Igan. Dushman qo'shinalari ustunlik qilib, bizni ortga chekinishga majbur qilishdi. Shiddatlari jang ochiq maydonga ko'chdi. Men otaravada jangchilarimizga oziq-ovqat yetkazib berardim. Arava va otni o'mron chetida qoldirib, navbatdagi topshiriqni olish uchun chuqur qazilgan okop ichidan komandirni qidira boshladim. Shu payt juda qattiq dovl turdi, chang-to'zon ko'z ochirgani qo'ymasdi. Bir qadam naridagi narsa ham ko'rinnay qoldi. Okop dan chiqmay dashman tomoniga qarab mo'ljalsiz timmay o'q uzardik. Dovulning izi kuchli jalaga aylandi, oradan hech qancha vaqt o'tmay okop svuga to'ldi. Okop qirg'og'idan tuproq o'pirilish tushar, oyoq g'imir osti loyxandaqqa aylandi. Fashist tanklari oldindi, uning ortida esa piyoda askarlarini bostirib kelishardi. Ortga chekinish to'g'risida buyruq berilgach, okopni tashlab chiqishga majbur bo'ldik. Hali o'n qadam ham yurmag'an edim, orqadan otilgan daydi o'qlardan ikkitasi tiz zamning pastiga tegib, oyoqlarimni teshib o'tib ketdi. Garchi og'riq bilinmasa ham yurolmay qoldim. Oyoqlarimdan qon oqa boshladi. Qonni to'xtatish uchun dorilar solingan aptechkamdan pishiq chilvir

ip olib tizzamni qattiq qisib bog'ladim, keyin mazam qocha boshladi — hushidan ketdim. Oradan qancha vaqt o'tganini bilmayman, ko'zimni ochsam, jang maydoni yarador va o'liklar bilan to'la, suv xalqoblari qip-qizil rangda edi. Ancha narida esa o'q ovozlar eshitilar, demak hali jang davom etardi. Ot-aravam turgan joyga qarab emaklay boshladim. Etigimning ichi issiq qon bilan to'ldi. Bir amallab otni ipdan bo'shatdim-da, aravaga zo'rg'a osilib chiqdim. Otimni o'mron ichidagi tor yo'lga olib chiqib, yag'riniga qamchi soldim, qayerga borayotganimni o'zim ham bilmash edim. Oq'riq zo'raygandan-zo'raya boshladi. Oyoqlarim shishib ketdi. Arava ustida holsizlikdan cho'zilib qoldim. Keyin esa hech narsani bilmayman...

Ko'zim ochilganda o'zimining harbiy - kasalxonaga keltirishganini va hayotimni saqlab qolish uchun oyoqlarimni oxirgi chora sifatida kesib tashlaganliklarini bildim. O'zimni oyoqsiz ko'rib yig'lab yubordim.

Ichim: "Men endi kimman? Hech kimga kerak bo'lmaydigan nogiron odamman. Qishloqqa oyoqsiz qanday boraman? Otami va onamning ko'ziga qandoq ko'rinnaman?", deb nola cheksa, aqlim: "Bir daydi o'q bilan olib ketishing mumkin edi-ku. Baxting bor ekan, tirk qolding. Shukur qilsang bo'lmaydim?" der edi.

Mana, shuncha yildan beri yasma yog'och oyoqda yuraman. Qani, mening ham oyoqlarim joyida bo'lsa, mayli, oyog'imdagi botinkam eng ko'rim-siz, eng arzon va yamoqli bo'lsin, uni o'z oyoqlarimga kiyib, tuproqli yo'llarda iz qoldirib yursam, bolam. To'rt muchang sog' ekan, demak sen eng baxtli odamsan.

Sharif boboning hikoyasi menga juda ta'sir qildi. Uyga kelgach, otamning oldiga kelib, uni quchoqlab yig'lab yubordim.

— Dadajon, sizga katta rahmat, men ga yangi tufli kerakmas.

Otam hayron bo'lgancha menga tiki lib qoldi, lekin indamadi.

Yillar o'tdi. Har safar yangi tufli sotib olgani borganimda Sharif bobo va uning yasama botinkalari ko'z oldimga keladi.

Jo'raqlu DAVLATOV,
Olot tumanidagi
16-maktab o'qituvchisi

Yaxshilar yodi

Salohiyatlari rahbar, qalbi toza do'st, ilmli ustoz

Matematika fanining yetuk mutaxassisini, ustozlarning eng aqlli va odobli shogirdi, yosh mutaxassislarning salohiyatlari rahbari, shaxmat o'yini ustasi, atrofdagillarga samimiy do'st va yolg'on gapirishni bilmaydigan hamyurt Abdumalik Jumayevni bugun xorirlab, ruhini shod etuvchilar ko'p. Uning dars o'tish uslublari ham o'ziga xos bo'lgan.

Tinglovchilarni o'ziga jalg'ebit, mavzuni soddagina shaklda tushuntirib berardi. Maktab bitiruvchilariga "Agar matematikadan yozma va og'zaki imtiyonan to'qqiz ball to'plasang, qolgan ikki imtiyonin topshirmsidan imtiyoz asosida o'qishga kirasan. Astoydil tayyorgarlik ko'rishni boshla" derdi. Shaxsan o'zim ushbu

nasihatga amal qilib, matematika bo'yicha yozma imtiyonan "4", og'zaki imtiyonan esa "5" baho olib, to'qqiz ball bilan imtiyoz asosida birinchini bo'lib talabalikka qabul qilinganman. Tumanimizdagi 16(4)-maktabda faoliyat yuritgan Abdumalik Jumayevning biz kabi shogirdlari bishyor.

— Abdumalikni 5-sinfda

lashtirish, obodonlashtirish, reytingini ko'tarishda ham jonkuylarlik bilan harakat qildi. 63 yil umr ko'rgan Jumayev ustozning hamkasbleri ham doim iliq fikrda bo'lishadi. Faxriy pedagog Bozor Boltayev shunday deydi:

— Abdumalik mening o'quvchimgina emas, yelkadosh ukam ham edi. Biz uni erkalab "kenja" deb chaqirardik. Haqiqatqo'y, kirimshimi yigit edi. Biror to'y-tadbirimiz Abdumaliksiz o'tmasdi. Yig'lnarda sabzini shunaqangi to'g'ardik, havasimiz kelardi. Shaxmatni juda sevardi. Oxirgi paytlari yuragi bezovta qiladigan bo'lib qoldi. Uni asrab-avaylardik. Hammamiz yaxshi ko'rardik. Qalbi

va tabiatli toza yigit edi. Shunday inson bugun oramizda yo'q.

A.Jumayev umrining oxirgi lazhalarida yonida bo'lomagan farzandi Akbarjon Jumayev dorixonadan kelgunicha otasi o'z omonatini topshirganini aytadi. U otasining o'zidan-da kechib yashaganini, hamisha do'st-u yorlar ko'ngliga qaranini, ilm dargohini obod qilish uchun jon ko'yitganini eslاب so'zlaydi. Doimo ibrat va hurmatga loyiq muallim, madaniyatli va sadoqatli inson farzandlari-yu shogirdlari qalbiga ilm chiroq'ini yoqib ketdi.

Norchuchuk
NORMURODOVA,
Shahrisabz shahridagi
16-maktabning matematika
fan o'qituvchisi

“Ma’rifat” repetitori

Majbuliy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 29-variante

ONA TILI

(9-sinf: bir darslik doirasidagi testlar)

1. Quyidagilardan qaysi biri til oilasi hisoblanmaydi?

- A) xitoy-tibet B) tangus-manjur C) xom-som
D) hind-yevropa

2. Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman. (A.Oripov)

To‘g‘ri hukmni toping.

- A) uch o‘rinda modal so‘z qo‘llangan
B) ikki o‘rinda yuklama qo‘llangan
C) bir o‘rinda undalma qo‘llangan
D) qaratqich kelishigining qisqargan ko‘rinishi(-n)
qo‘llangan

3. Qaysi qatorda sodda gap berilgan?

- A) Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G‘arbda dong taratdi.
B) Quvonarlari shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musiqashunosligimizga asos soldi.

C) Yaxshi fikr tiniq uslubni talab qiladi, uslub esa fikr libosidir.

D) Tabiat kimga aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo‘l uradi.

4. Quyidagi qaysi birlik “so‘z yoki gapni bir necha ma’noda ishlatalishga asoslangan so‘z o‘yini; ochirim” ma’nosida ham ishlatalidi?

- A) iztirob B) g‘urur
C) iftixor D) lutf

5. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi quyidagi vositalarni qo‘shma gap turlariga ko‘ra to‘g‘ri moslashtiring.

1) ergashgan qo‘shma gap; 2) bog‘langan qo‘shma gap; 3) bog‘lovchisiz qo‘shma gap. a) va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yo..., yo, dam..., dam... bog‘lovchilar; b) toki, agar, agarda, chunki, negaki bog‘lovchilar; d) bo‘lsa, esa vositalari; e) -ki yuklamasi; f) nisbiy so‘zlar, shuning uchun, shu tuyfali, shu sababli singari ko‘makchili qurilmalar; g) ohang (yozuvsda vergul, tire, ikki nuqta kabi).

- A) 1-a, e, f; 2-b, d; 3-g B) 1-g, e, f; 2-a, d; 3-b
C) 1-b, e, f; 2-a, d; 3-g D) 1-b, e, g; 2-a, d; 3-f

6. Qaysi so‘z imlo jihatidan to‘g‘ri qo‘llangan?

- A) asqatmoq B) asqotmoq
C) asqatmaq D) asqotmak

7. Kimning ko‘ngli ochiq bo‘lsa, uning el o‘rtasidagi martabasi ulug‘ bo‘ladi.

Ushbu ergashgan qo‘shma gapning qismlarini bog‘lovchi vosita qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

- A) shart bog‘lovchisi B) nisbiy so‘z
C) yuklama D) belgilash olmoshi

8. Agar kim zo‘ravon bo‘lsa va to‘g‘rilikdan qochsa, zahar-zaqqum o‘shanning nasibasi bo‘ladi.

Ushbu gapdagagi qaysi so‘z “kishiga qattiq botadigan kinoya, piching” ma’nosini ham ifodalashi mumkin?

- A) nasiba B) zahar-zaqqum C) zo‘ravon
D) bunday ma’noni beruvchi so‘z qo‘llanmagan

9. To‘rt mashina o‘g‘it yubordik // fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

Ushbu gapdagagi // belgisi o‘rniga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

- A) vergul B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) tire

10. Qizim, umring uzoq bo‘lsin, – dedi yo‘lovchi.

Ushbu ko‘chirma gapli qo‘shma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda “qizim” so‘zi qaysi gap bo‘lagi vazifasida keladi?

- A) vositali to‘ldiruvchi B) kesim
C) ega D) tushirib yuboriladi

11. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasiga qachon tire qo‘yiladi?

- A) bir paytda yoki ketma-ket sodir bo‘ladigan voqe-hodisalarni ifodalasa
B) izohlash munosabati ifodalanganda
C) o‘xshatish, zidlash, shart kabi munosabatlar ifodalanganda
D) bir-biriga yaqin bo‘limgan voqe-hodisani ifodala

12. Matning maqsadiga ko‘ra turlaridan qaysi biri ko‘proq ilmiy asarlarda, shuningdek, badiiy, so‘zlashuv va boshqa nutuq shakillarida qo‘llanadi?

- A) tasviriy matn B) muhokama matn
C) hikoya matn D) rivoya matn

13. Tinish belgilari haqidagi to‘g‘ri hukmlarni belgilang.

- 1) ikki nuqta uyushiq bo‘laklar, undalmalar, kirish so‘z va birikmalar, ajratilgan bo‘laklar, tasdiq, ta‘kid, inkor va shu kabi ma‘nolarni bildiruvchi ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so‘zlardan keyin qo‘yiladi;

2) buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma‘nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida so‘roq belgisi ishlatalidi;

3) vergul shaklan tugallangan, lekin mazmu-n keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda, shuningdek, ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapi, uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ishlatalidi;

4) uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergul lar yordamida bir-biridan ajratilganda, nuqtali vergul qo‘llanadi;

5) ajratilgan bo‘laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo‘laklardan ajratiladi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4
C) 4, 5 D) 1, 3, 5

14. Yo siz keling, yo men boray.

Ushbu bog‘langan qo‘shma gapning bog‘lovchi vositosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

- A) ayiruv bog‘lovchisi
B) zidlov bog‘lovchisi
C) birikiruv bog‘lovchisi
D) inkor bog‘lovchisi

15. Quyidagilardan nechtasi ma‘lumot-axborot hujjatlari sanaladi?

Ariza, bayonnomma, dalolatnomma, ishonchnomma, ma‘lumotnomma, tavsifnomma, tavsikanomma, tarjimayi hol, nota, tushuntirish xati, hisobot.

- A) sakkiztasi B) ikkitasi
C) oltitasi D) o‘ntasi

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 10-sinf “Ona tili” darsligi I qismida berilgan mavzular asosida tuzil-

gan test topshirilari beriladi. Mazkur mavzularni qunt bilan o‘qing va bilimingizni mustahkamlang.

Tuzuvchi: Xatirchi tumanidagi 1-maktab o‘qituvchisi G‘anisher HAQNAZAROV

MATEMATIKA

“Takrorlash testlari”,

6–8-sinf materiallari bo‘yicha)

16. 21 22·23·24·25...84·85 ko‘paytma nechta nol bilan tugaydi?

- A) 15 B) 16 C) 17 D) 14

$$17. \frac{1}{3 \cdot 5} + \frac{1}{5 \cdot 7} + \frac{1}{7 \cdot 9} + \dots + \frac{1}{21 \cdot 23} \text{ ni hisoblang}$$

- A) $\frac{20}{69}$ B) $\frac{7}{23}$ C) $\frac{17}{23}$ D) $\frac{10}{69}$

x	a	b	c
a	9		
b		49	35

18. Agar a, b, c raqamlar bo‘lsa, ko‘paytirish jadididan foydalanim ab+a-b-c ning qiymatini toping.

- A) 5 B) 4 C) 12 D) -4

$$19. f(x) = \begin{cases} x - 5, & x \geq 3 \\ 2x + 3, & x < 3 \end{cases}$$

$g(x) = x + 12$ funksiyalar berilgan.

$f(g(-12))$ ning qiymatini toping.


- A) -7 B) 3 C) -9 D) 11

20. Quyidagi sonli ketma-ketliklardan qaysilari tub sonlardan iborat?

- 1) 0, 3, 5, 7, 11; 2) 1, 3, 5, 7, 13; 3) 3, 5, 7, 9, 11;

- 4) 2, 3, 5, 7, 17; 5) 3, 5, 17, 19, 381;

- A) 1; 2 B) 4 C) 5 D) 3



21. Son o‘qidagi har bir bo‘lma 20 km.ga teng. A dan B ga boradigan avtomobil bu oraliqni 50 km/soat tezlik bilan bosib o‘tadigan bo‘lsa necha soat vaqt sarflaydi.

- A) 1 B) 2 C) 4 D) 20

22. Ifodaning qiymatini toping: $(3^3 - 5^2)^3$

- A) 22 B) 16 C) 8 D) 25

23. 72 sonining natural bo‘luchchilarini sonini toping.

- A) 15 B) 19 C) 12 D) 17

24. Agar AB kesmaning uzunligi 13 sm.ga teng va uchburchaklar muntazam uchburchaklar bo‘lsa, berilgan shaklning perimetritini toping.



- A) 13 sm B) 26 sm C) 39 sm D) 52 sm

25. Amallarni bajaring.

“Ma’rifat” repetitor

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 29-variante

$$\frac{3}{5} : \frac{9}{10} + 3 \frac{3}{4} \cdot \frac{2}{5} - 4 : 2 \frac{2}{3}$$

- A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{3}$ C) 1 D) $2 \frac{2}{3}$

26. -8, -7, -5, 2, 4, 5 sonlari orasidan intixoriy ikkitasi tanlab olindi va bir-biriga ko'paytirildi. Eng kichik son nechaga teng bo'lishi mumkin?

- A) -40 B) -56 C) -18 D) -20

27. Do'konda 1 dona buxanka 1700 so'm. Roziyabibi oilasiga 1 kunda 2 ta buxanka non zarur. Bu oila uchun 30 kunda necha so'mlik non sotib olinadi?

- A) 60000 B) 90000 C) 82000 D) 102000

28. a ning qanday qiymatida $283-(a+93)$ ifoda 117 ga teng bo'ladi?

- A) 63 B) 93 C) 73 D) 83

29. Eng kichik besh xonali sonning eng kichik uch xonali songa bo'linmasini toping.

- A) 100 B) 10 C) 1000 D) 101

$$30. \frac{8}{18} + \frac{21}{32} + \frac{33}{45} = a \text{ bo'lsa,}$$

$$\frac{28}{18} + \frac{43}{32} + \frac{57}{45} = ?$$

- A) 2-a B) 3-a C) 6-a D) 8-a

Keyingi sonda "Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili" mavzusiga oid murakkabroq testlar beriladi. Ular 6-8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

(10-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining
23-28-mavzulari asosida tuzilgan testlar)

31. Quyidagi mahalliy rahbarlardan qaysi biri umrining oxirigacha O'zSSR Kompartiyasi MK birinchi sekretari lavozimida faoliyat ko'rsatgan?

- A) Sobir Kamolov
B) Sharof Rashidov
C) Nuriddin Muhibdinov
D) Amin Niyozov

32. 1991-yil 1-noyabrdan qabul qilingan qonunni belgilang.

A) "O'zbekiston SSRda ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"

B) "O'zbekiston SSR Davlat tili to'g'risida"
C) O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"
D) "O'zbekiston Mustaqillining asoslari to'g'risida"

33. O'zSSR Ministrler Sovetining raisi lavozimida faoliyat yuritgan mahalliy kadrlarni rahbarlik yillari bilan muvofiq tarzda belgilang.

- 1) Orif Alimov; 2) Rahmonqul Qurbonov;
3) Normuhammad Xudoberdiyev.
a) 1959-1961-yillar; b) 1961-1971-yillar;
c) 1971-1984-yillar.

- A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-b, 2-c, 3-a

- C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-a, 2-c, 3-b

34. Nechanchi yili SSSRda kommunistik partiyaning hukmronligidan voz kechilgan?

- A) 1989-yil B) 1990-yil
C) 1987-yil D) 1991-yil

35. 1982-yil aprelda tashkil qilingan viloyatni aniqlang.

- A) Jizzax B) Sirdaryo
C) Surxondaryo D) Navoiy

36. 1985-1990-yillarda O'zbekistonda "paxta ishi" bo'yicha qancha kishi tergov qilingan?

- A) 3000 nafar B) 40 000 nafar
C) 10 000 nafar D) 30 000 nafar

37. Quyidagi qaysi atama "ajratmoq, yakkalamoq" ma'nosini anglatib, kazarma, lager, yuqumli kasalligi bor bemorlar saqlanadigan va shu kabi vaqtincha ajratib qo'yiladigan alohida xona, joy mazmunini ifodalaydi?

- A) izolyator B) rezervatsiya
C) konslager D) getto

38. "Qayta qurish" siyosatining mag'lubiyatga uchrashi sabablarini belgilang.

1) Aniq va izhil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturning yo'qligi; 2) Mamlakatdagi partokratik rahbaryatning "nomenklatura"ni saqlab qolishdan manfaatdorligi; 3) Milliy respublikalarning suvereniteti haqida so'z borsa-da, Ittifoqni yangilangan shaklda saqlab qolishga intilish;

4) Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirishning imkonsizligi; 5) Yuzaga kelgan jiddiy ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolar.

- A) 1, 2, 3 B) 1, 2
C) 1, 2, 3, 4 D) 3, 4

39. 1990-yil 12-15-martda SSSR Xalq deputatlarning navbatdan tashqari III syezdida qanday tarixiy voqealar yuz berdi?

- A) Ittifoqning yangi Konstitutsiyasini qabul qilindi
B) SSSR Prezidenti lavozimi ta'sis etildi
C) ittifoqdosh respublikalarga siyosiy erkinliklar berildi
D) "qayta qurish"ning muvaffaqiyatsizlikka uchragani qayd etildi

40. O'zbekistonda XX asr 80-yillari oxiri - 90-yillari boshlarida vujudga kelgan siyosiy partiya va harakatlar qanday talablarni ilgari surgan?

1) Oshkorlikni kengaytirish; 2) Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni faollashtirish; 3) O'zbek xalqi milliy qadriyatları, an'ana va marosimlarini qayta tiklash; 4) Respublika hayotida Markaz hukmronligiga barham berish; 5) O'zbekistonning tom ma'nodagi siyosiy va iqtisodiy mustaqilligiga erishish.

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4
C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

41. O'zbekistonda birinchi marta yashirin ovoz berish yo'lli bilan to'g'ridan to'g'ri umumiy va muqobil asosda prezidentlik saylovlar o'tkazilgan sanani belgilang.

- A) 1991-yil 18-noyabr B) 1989-yil 23-iyun
C) 1991-yil 29-dekabr D) 1990-yil 24-mart

42. SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlarni bo'yicha maxsus tergovchilar guruhi tuzilib, ularning dastlabkisi O'zbekistonga yuborilgan sanani belgilang.

- A) 1982-yil B) 1983-yil
C) 1984-yil D) 1985-yil

43. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan og'ir ekologik vaziyat oqibatida Quyi Amudaryodagi baliqchilik bilan nom chiqargan qaysi shahar aholisining ko'pchiligi 10-15 yil ichida ishsiz va nochor ahvolga tushib qoldi?

- A) Mo'ynoq B) Qo'ng'iroq
C) Chimboy D) To'rko'i

44. 1958-yil 3-sentabrda O'zbekistonda qaysi korxonaga poydevor qo'yilgan?

- A) Gazli tabiiy gaz koni
B) Navoiy kon-metallurgiya kombinati
C) Muruntov oltin koni
D) Toshkent traktor zavodi

45. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi necha yilga tengligi e'tirof etiladi?

- A) 3000 yil B) 2700 yil
C) 3300 yil D) 3500 yil

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti
talabasi, repetitor

28-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
B	C	A	D	C	A	B	B	D	A	C	B	C	A	D

MATEMATIKA

16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
B	D	A	B	B	B	C	C	C	B	A	E	C	A	C

TARIX

31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
B	A	A	B	D	B	A	C	B	D	C	B	A	B	D

"Unutmoq osonmas bizlarni"

Bahriiddin Muranov Oqtov etaklariga tutashgan Qo'rli soy farzandi. Bolaligining sirli dunyosi ana shu kenglikda o'tgan. Undagi tirishqoqlik, kamtarlik aslida tomirida bo'lgan. Umrining 90 baho rini qarshilayotgan Izo ota hamda farzandlarining yaxshi kunlarini ko'rish armon bo'lgan Nasibali ona dunyoqarashining kengligi, xalq pedagogikasidan yetarlichcha xabardorligi farzandlari, jumladan, Bahriiddin ham yetuk inson bo'lishida muhim omil bo'ldi.

Bahriiddin 1974-yili Ishtixon tumanidagi 50-maktabning muvaffaqiyatlama tamomlab, 1976-yili Samarcand davlat pedagogika institutining "Umumtexnika fanlari va mehnat ta'limi" yo'nali shiga o'qishga kirib, uni imtiazli diplom bilan tamomladi. Mehnat faoliyatini Qo'shrabot tumani 4-maktabda o'qituvchilikdagi boshlagan muallim tumandagi 2-maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatida o'quv-tarbiyiyi ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari vazifasida ham ishladi.

Institutda oltagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llagan tinib-tinchimas xodim mehnat ta'limi metodikasi, o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish borasida bir qator pedagogik muammolar bolg'ini anglab yetdi. Ilmga qiziqish uni o'zi tahsil oltagan dargohga yetakladi va 1983-yildan "Fizika va mehnat ta'limi" kafedrasida metodist, keyinchalik.

lik malaka oshirish fakultetida dekan o'rnbosari lavozimida mehnat qildi.

Bahriiddinni talabalik yillaridan yaxshi bilardim, — deydi institutning ilmiy ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor Narziqul Shodiyev. — U intiluvchan, iste'dodli, irodali, tabiatan ilmga qiziquvchan yigit edi. Institut rahbariyati bilan maslahatshib, Bahriiddin Muranov, Muhammadjon Quronov kabi yoshlarni Moskvaga, Pedagogika fanlari akademiyasiga maqsadli aspiranturaga o'qishga yubordik. Ular ishonchni oqlashdi. Belgilangan mudatda ilmiy ishlari himoya qilishdi. Bahriiddin muammoning yechimiga xo'jako'rsinga yondashmasdi. U masalani atroficha o'rganar, undan asosli xulosalar chiqarardi. Afsuski, bevaqt o'lim uni oramizdan erta obil ketdi.

Shu o'rinda aytish mumkin, dunyo pedagog olimlari to-



monidan tan olingan A.Vasilov, V.Bespalko, V.Slastenin, P.Autov, respublikamiz pedagog olimlari akademik R.Jo'rayev, professorlar U.Nishonaliev, A.Xo'jaboyev, E.Choriyev kabi olimlarning suhabatlari, maslahatlari Bahriiddinning pedagog olim bo'lishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi. 1991-yili "Bo'lg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarini qishloq maktabi o'quvchilarining mehnat amaliyotiga rahbarlikka tayyorlashning metodik asoslari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1992-1995-yillarda Samarcand davlat universitetining "Fizika va mehnat ta'limi o'qituvchilarini" kafedrasida dotsent vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida o'z yo'nali shi bo'yicha kunduzgi doktoranturada tahsil oldi.

1998-2000-yillarda O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazida katta ilmiy xodim, bo'lim mudiri vazifalarida ishladi. 2000-yilda Qo'shrabot biznes kolleji direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rnbosari bo'lib ishladi. Ustoz viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida dastlab "Amaliy fanlar", so'ngra "Jismoniy tarbiya, san'at va mehnat ta'limi" kafedrasida mudir vazifasida ham faoliyat ko'rsatdi. 2012-yildan umrining oxirigacha Samarcand davlat universiteti "Kasbiy ta'limi o'qitish metodikasi" kafedrasida mudirlik qildi.

Republika ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari birinchi o'rnbosari pedagogika fanlari doktori, professor Muhammadjon Quronov shunday deydi: "Biz Moskvada aspiranturada bir davrda o'qidik. Nomzodlik dissertatsiyalarimizni bir kunlik farq bilan himoya qilganmiz. Men Bahriiddinni haqiqiy pedagog olim, jonkuyar ustoz, bag'rikeng inson, sadoqatli do'st sifatida hurmat qilaman. Yosh tadqiqotchilarda do'stimdag'i ilmga tashnalik, kasbga sadoqat, ilmga halol xizmat qilish kabi fazilatlar bo'lishini istardim".

Ustoz turmush o'rtog'i Hamida opa bilan 6 nafar farzandni voyaga yetkazdi. Ularni o'qitdi. "Ot o'mini toy bosadi" deyishadi. O'g'li Sa-

mandar universitetda pedagog ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib bormoqda. Serqirra qahramonimiz farzandlari bilan Qo'rli soyda havas qilsa arziguylit mevali bog'lar, uzumzorlar barpo etdi. U yaratgan bog'lar, tarbiyalagan shogirdlari bugun kuch-quvvatga to'igan, shig'il mevalar berib, undan jamiyat bahramand bo'imoda. Aslida, insondan qoladigani ham shu. Ilm martabasiga erishishni istagan, butun hayoti davomida izlangan, mashaqqatlarni yengib o'tgan fidoyi inson ilmdan kuch oldi, ilm insonni ezzuliklar sari yetaklashiga ishondi. Nurga intilib hayotda o'z o'rnnini topdi.

El e'zozlagan, halol mehnati orqasidan obro' topgan, ammo umrining 62 baho rida mangu uyquga ketgan Bahriiddin farzandlar, qarindoshlar, do'st-birodarlar, sadoqatli shogirdlari qalbida bir umr yashaydi, uning ruhi mangulikka daaxidor. Maqolaga endi nuqta qo'yayotganimda radiodan xalqimizning sevimli farzandi Oxunjon Madaliyevning dilarni sehrlochchi mayin ovozi yangrab qoldi. Hofiz avj pardalarda kuylamoqda:

*Soyaman ortinged
ergashgan,*

*Yostigman tunlari
dardlashgan.*

*Tushingman,
o'ngingga almarshgan*

*Unutmoq osonmas
bizlarni...*

Bahriiddin Muranovday ezzulik yo'lida xizmat qilgan yaxshilarni unutib bo'lmaydi.

*Abdumajid ABDUMANNOTOV,
pedagogika fanlari nomzodi*

Ibratli umr

Bobomning sevimli nabirasi edim!

Bobom Normurod O'tayev (asl ismi Nurmuhammad) 1921-yilda Samarcand viloyatida tug'ilgan. 19-20 yoshida ikkinchi jahon urushiga ketib, bir qo'li yarador holda qaytib kelgan. Bobom baland bo'yli, gavdali inson edi. Lekin o'q yegan qo'li judayam ozg'in, o'q izi chuqr ko'rinib turardi. Shundan bo'lsa kerak faqat yog'och qoshiqda ovqat yerdil, chunki temir qoshiq ushplashga barmoqlari bo'ysunmasdi.

Bobomning husnixati shunchalik chiroli ediki, ko'rgan inson havas qilaridi. Ham diniy, ham dunyoviy bilimlar sohibi, tabiatan shoirtabiat, kuchli matematik, judayam salohiyatlari inson edi. Otam kichik o'g'il bo'lgani sabab biz bobo va buvumiz bilan birga yashab, ularning tarbiyasini olganmiz. Ular bilan bir hovlida yashash, bir dasturxon atrofida o'tirish qanchalik baxt edi. Hayotimning 21 yili bobom bilan bog'liq xotiralarga limmo-lim. Kichkinaligimdan akam ikkimiz bobom va buvum bilan birga turganmiz. Ertalablari bobomning azon ovozidan uyg'onardim. O'rnimdan turib uning joyiga kirib yotib, namoz o'qishini kuzatardim, qulq solib, yod

olardim. Shundanmi, ilk marta namoz o'qiganimda azon bilan boshlagan edim. Shunda bobom azon aytish faqat erkaklarga xosligini tushuntirgan.

Uyimizda chorvamiz ko'p edi. Bobom bilan ularni dalaga olib chiqardik. Keng dala, bepoyon osmon ostida udan olib kelgan jurnal yoki badiiy kitobni o'qib, bahslashib o'tirardik. Bobomdan urush xotiralarni so'rar, o'q ovoziga to'igan dalalarni ko'z oldimga keltirib timay so'roqqa tutardim. Oila-miz "Sharq yulduzi", "Saodat", "Yosh kuch", "Fan va turmush", "Mushtum" jurnallariga har yili obuna bo'lardim. Gazetalarni maktabdan keltirib o'qirdik. Bobom bu ishlarda bizga bosh edi.

Bobom boshchiligidagi qishlog'i-mizda maktab qurildi, u yerda uzoq yillar maktab direktori bo'lib ishladi. Asli matematik bo'lsa-da, barcha fanlarni judayam yaxshi bilardi. Uyimizga o'qituvchilar ko'p kelishar, muammoli vaziyatlarni uning maslahatlari bilan hal qilishardi. Hattoki biror murakkab misol yoki masalaning javobini topolmasalar bobomning yordamida albatta javob chiqarilardi. Maktabdagi o'quvchilar orasida o'sha mashhur "Xotira" daftarlari yozishda ham bobomdan yordam so'rardim. Chunki u hech kim yozmagan chiroli gaplar, ma'noli she'rlarni aytib turardi.

Bobom 6 farzandining hammasini oliy ma'lumotli qilishga qat'iy bel bog'lagandi. Hatto nabiralarining oliy ma'lumotli bo'lishlarida ham alohida hissasi bor.

Men uning eng sevimli nabira qizi edim. Turmushga chiqib ketayotganimda otamdan avval bobomning oyoqlariga bosh urib yig'lagandim. Uning

mehrli va ozg'in qo'llari bilan quchib, uzoq yig'lagani hamon yodimda. Shunday bilimdon, aqlli, mehribon insonning sevimli nabirasi bo'lish nasib etganidan juda ham baxtilman. Javonda bobomning orden va medallarga to'la chirolyi kostyumi osilgan, u hamisha men bilan biriga.

Sulolamizdan asosan o'qituvchilar yetishib chiqdi. Buni ko'rib, bobomning umri besamar ketmaganini anglash mumkin.

*Ota farzand uchun tabarruk inson,
Otaning otasi undan tabarruk.
Hayot yo'llarimni yoritgan chiroq,
Sizdan minnatdorman hayoti buyuk.
Siz sabab otamning boshlari baland,
Siz sabab sulola dovrug'i mashhur.
Shunday yashagansiz,*

*tiriksiz hamon,
Siz sabab farzandlar ko'ksida g'urur.*

*Kamola O'TAYEVA,
Shayxontohur tumanidagi
324-maktabning biologiya
fan o'qituvchisi*



**TOSHKENT VILOYATI
XALQ TA'LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI
mavjud quyidagi bo'sh
(vakant) o'rirlarga
TANLOV E'LON QILADI.**

Kafedra mudiri lavozimiga:

- "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi" kafedrasi.
- "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari" kafedrasi.
- "Tillarni o'qitish metodikasi".

Tanlovdan qatnashishni xohlovchilar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagi manzilga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, G'azalkent shahri, Birlik ko'chasi, 21-uy. Toshkent viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi kadrlar bo'limi.

Murojaat uchun telefon: (70) 742-12-47.



Qodirov Zaynidin Zaripovichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Soyani sho'rلانishga moyil tuproqlar sharoitida sug'orish texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish (Buxoro viloyati misolida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashining 2021-yil 25-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, "Botanika" MFY, PSUYAITI. Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Xamidov Odil Abdurasulovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'lifi nazariyasiga va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanish orgali talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'lifi boshqaruvi hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Jiyanqulova Rahima Xayrullayevnaning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'lifi nazariyasiga va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Professional ta'lif mazmunini milliy qadriyatlar bilan integratsiyalash texnologiyalarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'lifi boshqaruvi hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Raxmatova Guzel Botirovnaning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Bitsiklik oltingugurli organik birikmalar asosida yuqori samarali korroziya inhibitorlari olish va qo'llash" mavzusida falsafa doktori dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03.30.12.2019. T.78.01. raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-may kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz



O'QISHGA MARHAMAT!

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan
maktab-internatiga 2021-2022-o'quv yili uchun
o'quvchilar qabulini
E'LON QILADI.**

QABUL QOIDALARI:

"KLASSIK RAQS" va "XALQ RAQSI" bo'limiga umumiyo'rta ta'lim maktabalarining 4-sinfini bitirgan 10-11 yoshli o'quvchilar qabul qilinadi.

Konsultatsiyalar may oyining har shanba kuni 14:00 dan 17:00 ga qadar, kirish imtihonlari 2021-yilning 7-, 8-, 9-iyun kunlari soat 9:30 dan 17:00 ga qadar o'tkaziladi.

Viloyatlardan kelgan o'quvchilarga o'qish jarayonida ehtiyojiga qarab maktab-internatidan turar-joy ajratiladi.

Ma'lumot uchun telefonlar:

(71) 256-24-36, 256-37-13, (90) 319-60-54.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 31-uy. **Mo'ljal:** "Kosmonavtlar" metro bektisi.

Boymuratov Faxriddin Tog'aymuradovichning 01.04.06 — "Polimerlar fizika-si", 02.00.12 — "Nanokimyo, nanofizika, nanoteknologiya" ixtisosliklari bo'yicha "Tarkibida nikel nanozarrachalar bo'lgan kompozitsion polimer materiallarning elektron xususiyatlari" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 21-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-B" uy. Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Oymatov Rustam Kamariddinovichning 11.00.06 — Geodeziya, Kartografiya ixtisosligi bo'yicha "Geoxaborot tizim va texnologiyalari asosida qishloq xo'jaligining elektron kartalarini tuzish uslubini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mechanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 21-may kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Yelkin Denis Yurevichning 10.00.04 — Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti (filologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Polilingval sharoitida badiiy matnlarning lingvomadaniy tadqiqi" mavzusida (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A" uy. Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Xusanov Sardorbek Olimjonovichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Andijon viloyatining o'tloqi tuproqlarida kuzgi bug'doy va takroriy ekiladigan soyaning yangi navlarini sug'orish tartibini o'rganish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, "Botanika" MFY, PSUYAITI. Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Ey, Vatan!

*Isming ayrib chiqar kurtaklar,
Isming ayrib chiqadi quyosh.
Isming aytar jangchi yuraklar,
Kurash chog'i tugasa bardosh.
Ey, qalbimning onasi, Vatan!*

Xurshid Davron

Vatan. Bu so'zni eshitganda yuraklarda ajib bir g'urur va hayajonni his etamiz.

Vatan. Tunlar bedor uxlamay mehr bilan allalar aytgan munis va mehribon onamsan!

Vatan. Mening baxt-u iqbolimni o'ylagan, qo'llari mehnatdan qavargan bag'rikeng otamsan!

Meni ko'rganda ko'zlar mehrdan yongan sho'x-shaddod opa-singlimsan!

Meni or-nomusim deb avaylagan, goho bilib-bilmay ko'nglini og'ritib qo'ysam, jilmayib-gina kechirgan tanti va mard og'amsan!

Ilk qadamimdan hayratlangan, quvongan, duolar qilib baxtimni, umrimni tilagan bobomsan!

Ilk so'zlarimdan zavq olgan "oppog'im", "enam" deb erkalagan momomsan!

Ko'zlarimni quvnatgan, menga kuch-quvvat ato etgan bog'-u rog'imsan, g'ururdan mag'rur ko'ksini kerib turgan tayanchim-tog'imsan.

Vatan. Tongda hech kimga aytmagan tushlarimni tinglagan irmoqlarim, barchaga birdek hayot baxshida qilgan daryomsan!

Vatan. Seni, senga bo'lgan mehr-muhabbatni so'z bilan ta'riflab, qalam bilan chizib bo'lmaydi.

Vatan shu qadar azizki, uni inson umr bo'yi e'zozlab sevadi. Unga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqatning o'chovi bo'lmaydi. Bir kitobda o'qigan edim.

"Biz o'zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo'q. Vatanni olib ketib bo'lmaydi. Agar Vatanni xurjun kabi olib yurish va tashlab ketish mumkin bo'lqanda, u sariq chaqaga ham arzimasdi".

Har bir davr ijodkorlari Vatan tuyg'usini, unga bo'lgan mehr-muhabbatni satrlarga tizaveradi, ammo uni hech kim me'yoriga yetkaza olmagan.

Ammo Vatanni sevish, ayniqsa, uni amalda namoyon qilish unchaliq oson ish emas...

Buni xalqimizning asrlar davomida orzu-niyat qilib, intilib kelgani – yurt ozodligi, huriyi yo'lida o'z jonlarini baxshida etgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmuddin Kubro jasoratida, "Vatan uchun" deya jangga kirgan qanchadan qancha mard, jasoratlari o'g'lonlar timsolidka ko'rishimiz mumkin.

Hech yodimdan chiqmaydi. Akamning nikoh to'yi edi. Kuyovyo'ralar bilan kelining dugonalariga bir uyg'a joy qilishdi. Davrani qizitish uchun bir abjirrog'i qog'ozga savollar yozib, yigit-

qizlarga tarqatdi. Biz ham qiziqib eshikdan, derazadan mo'ralab turibmiz. Akamning Afg'onistonida harbiy xizmatni o'tagan Eshdavlat ismli do'stiga "Eng aziz ne'mat nima?" degan savol tushdi.

Eshdavlat aka savolni baland ovozda o'qidu, birpas jum bo'lib qoldi. Nazarimda, bo'g'ziga nimadir tiqilganday bo'ldi. Davradagilar "non", "kitob", "do'stlik" so'zlarini aytib yordamlashgan bo'ldi. U kishi o'zini tutib oldi, ko'zlaridan oqaytgan yoshlarni ro'molchasi bilan artdi.

— Dunyoda eng aziz ne'mat, bu Vatandir, — dedi.

Negadir bu so'zlar mening murg'ak qalbimda chuqur iz qoldirgan edi. Shunda anglaganim — tinch va obod Vatanda yashash ham, uni sevish ham baxt ekan.

Bir yili urush qatnashchilari bilan o'quvchilar uchrashuvli o'tkazdir. Uchrashuvga Afg'on urushi qatnashchisi Erkin Shoyimovni ham taklif qildik.

Faxriylar urushning dahshatli oqibatlari, inson hayoti uchun tinchlikning ahamiyati haqida gapirib berishdi.

O'quvchilardan biri Erkin akaga savol berdi.

— Siz Vatanga qaytayotganingizda o'zingizni qanday his etdingiz?

Rahmatli Erkin akaning ko'zlar yoshga to'lib dedi:

— Dunyoda Ollohning bizga atagan buyuk tuhafsi bor. Buni har doim ham anglayvermaymiz. Bu — Vatan.

U go'zal tabiatni, osmono'par tog'lari, da-la-dashtlari, bepoyon qirlari, bebaho ma'danlaridan tortib, oddiy tuproq ko'chalari, maysa-yu tiklanlari bilan azizzdir.


Bizga Vatanga qaytish buyurilganida quloqlarimizga, samolyotdan tushganimizda esa ko'zlarimizga ishonmadik. Bilasizlarmi, samolyotda kelgan barcha askarlar Vatan tuprog'ini o'pish, uni quchish uchun yerga yotib olgandik, tushgan joyimiz beton bo'lsa ham ahamiyati yo'q edi. Vatanga ormon qaytmoq, uning bag'rida yashash qanchalik baxt bo'lsa, uning bag'rida o'lmoq ham shunday baxtdir. Buni ta'riflab bo'lmaydi, faqatgina his qilish mumkin.

Tinchlikning naqadar ulug' ne'mat ekanligini urush yillarda bolaligi kechgan ota-bobolaramiz hikoyalardan ham anglab olganmiz. Shoir Yo'ldoshbek Kenja ta'riflaganidek:

Urush... Bu so'zni aytganda til muzlaydi,

Urush... Bu so'zning libosi qop-qora.

9-may — Kotira va qadrlash kuni eng yaqin qadrondonlarimizni yodga oldik. Xalq manfaati uchun mehnat qilgan, el-yurt hurmatiga sazovor, yurt ozodligi deya kurashlarda halok bo'lgan kishilar xotirlandi. Marhumlarni yod etish, tiriklarni shod



etish — bu kunning asosiy ma'nosini belgilaydi.

Vatan aziz, jasorat mangu.

Yillar o'taveradi, ammo xalq o'zining asl fidoyi farzandlarini umutmaydi. Ular qaysi kasb egalari bo'lishidan qat'i nazar, xoh o'qituvchi, xoh shifokor, xoh muhandis, yo olim, yoki Vatan sarhadlarini qo'riqlayotgan posbonlarimiz bo'lsin. Ularning hayoti, jasorati bizga ibrat bo'lib xizmat qilaveradi. Farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat urug'ini ekishga fidoyilikka chorlayveradi.

Bugungi yosh avlod bobolarimiz jasorati, sadoqatidan o'rnak olib, ilm-fan cho'qqilarini egalashga, jahonga O'zbekiston atalmish o'lkanning dong'i ni doston qilishga, eng rivojlangan mamalikatlar qatoriga qo'shish va istiqbolini ko'rish uchun bor kuchini sarflaydi.

O'quvchilarimning ijodiy daftarini varaqlaysman:

*Bu — haqiqat, qilmayman inkor,
Tomchi so'zim bo'lmas balki ko'l.
Vatan, senga muhabbatim bor,
Tanti dehqon hosilidek mo'l.*

(Sherali Eshbo'riyev)

Yoki:

Vatan, seni nega sevmayin,

Sen — orim, g'ururim, qalbim qo'risan.

Nega dovrug' solmay dunyoga,

Sen — mehr, ham sehr, imyon murisan.

(Sevinch Kenjayeva)

Daftarda bitilgan satrlardan ayon — yoshlari mis o'z ajdodlari bilan iftixor qilishi barobarida, farzand bo'lib Vatanning sha'nini ko'targisi, ulug'lagisi keladi. Albatta, bunday sharafga erishish uchun harakat qilishlariga ishonaman.

Risolat JUMANAZAROVA

Qamashi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Olyi va o'ta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan kodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4661. Tiraji 10256.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulkona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahrirli
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiz
qilinmaydi va mualifga
qaytarilmaydi.

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Matbuatchi muharrir: Dilafro'z Abdurajabova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'za yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6